



UO'K::327:94(584.4+100)"17-18"

*Sirojiddin BAROTOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail:sirojiddinbaratov1985@gmail.com*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti O.Normatov taqrizi asosida*

#### TRADE RELATIONS OF THE BUKHARA KHANATE WITH RUSSIA DURING THE ASHTARKHANID PERIOD

Annotation

The article analyzes the relations of the Khanate of Bukhara with Russia in the 17th century and the first half of the 18th century, the establishment of diplomatic and trade relations between them, and the role of these processes in the economic and political life of both countries.

**Key words:** Lower Novgorod fair, Khoji Tarkhan (Astrakhan), Kazan, Arkhangelsk, Tobolsk, Tara, Tyumen, Tomsk, Nogai land, Western Siberia, Orenburg, Troitsk, "Bukharas", Irtysh line, velvet, zandana, carpet, felt, silk, leather, ruby, emerald, silver, tin, saltpeter, ivory, wooden pots, wax, honey, hunting weapons, hunting birds, lead and gunpowder.

#### ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ БУХАРСКОГО ХАНСТВА С РОССИЕЙ В ПЕРИОД АШТАРХАНИДОВ

Аннотация

В статье анализируются отношения Бухарского ханства с Россией в XVII и первой половине XVIII века, установление дипломатических и торговых отношений между ними, а также роль этих процессов в экономической и политической жизни обеих стран.

**Ключевые слова:** Нижегородская ярмарка, Ходжи Тархан (Астрахань), Казань, Архангельск, Тобольск, Тара, Тюмень, Томск, Ногайская земля, Западная Сибирь, Оренбург, Троицкая «Бухарцы», Иртышская линия, пепел и порох.

#### ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGINING ROSSIYA BILAN SAVDO ALOQALARI

Аннотация

Maqolada XVII asrda va XVIII asrning I yarmida Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari, ular o'rtasida diplomatik va savdo aloqalarining yo'lga qo'yilganligi va bu jarayonlarning ikkala davlat iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Quyi Novgorod yarmarkasi, Xoji Tarxon (Astraxan), Qozon, Arxangelsk, Tobolsk, Tara, Tyumen, Tomsk, No'g'oy yurti, G'arbiy Sibir, Orenburg, Troitsk "Buxoroliklar", Irtysh chizig'i, baxmal, zandana, zarbof, gilam, kigiz, ipak, teri, la'l, yoqut, zumrad, kumush, qalay, selitra, fil suyagi, yog'och idishlar, mum, asal, ov anjomlari, ov qushlari, qo'rg'oshin va porox.

**Kirish.** Tarixdan bizga ma'lumki, biror bir davlat xalqaro diplomatik va tashqi savdo aloqalarisiz rivojlanishga olmagan. O'rta Osiyo mintaqasi savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi ham tashqi savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Buxoro xonligining XVII-XVIII asrning birinchi yarmidagi tashqi aloqalariga e'tibor qaratsak, bu davrda shayboniylar davridagidek, ayniqsa, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davridagi kabi faol tashqi diplomatik siyosat ko'zga tashlanmaydi [1]. Buxoro xonligining qo'shni bo'lgan Rossiya shaharlari bilan iqtisodiy va savdo aloqalari tarixini yoritish va bu munosabatlarning davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni belgilash muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Rossiya davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi aloqalar haqidagi batafsil ma'lumotlar XVI asrga va XVII asrning birinchi yarmiga tegishli. Jumladan, Ya.V. Xanikov o'zining Orol dengizi xaritasiga bag'ishlangan asarida Rossiya bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi aloqalar VIII asrda boshlanganligini aytib o'tadi [2]. S.V. Jukovskiy o'zining "Uchuz yil davomida Rossyaning Buxoro va Xiva bilan aloqalari" nomli esdaliklarida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar va savdo-sotiq munosabatlari haqida ma'lumot berib o'tadi [3]. Yana bir rus sayyohi Russov o'zining "1753-yilda Orenburgdan Xivaga samaralik savdogar Rukavkinning sayohati" kitobida Buxoro, Xiva xonliklari va Rossiya munosabatlari haqida ma'lumotlarni xronologik tartibda keltiradi [4]. Shuningdek, M.V. Fexner, A.V. Pankov Mirzo Olim Maxdum Hoji, O. Aminov, H. Ziyov R.R. Alimova [5] va boshqalarning asarlarida Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalar haqida ma'lumotlar uchraydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada tarixiylik, qiyosiy, xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** XVI-XX asrlarda Buxoro xonligi Rossiya, Hindiston, Eron, Xitoy, Afg'oniston va boshqa qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalarni amalga oshirgan [6]. Xonlik poytaxti Buxoro shahrining savdo markazi sifatidagi o'rni katta bo'lgan. Bu haqda Mirzo Olim Maxdum Hoji o'z asarida: "Buxoro bir tarafdin Hindu, Chin, Eron va Afg'oniston ila va bir tarafdin

Rusiya ila ijro qilinib turgan bir tijoratning markazidir" deya ta'riflaydi [7]. XVI asr va XIX asrning I yarmida O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari uchta yo'nalishda olib borilgan: birinchi yo'nalish-Volgabo'yi orqali (Astraxan va Quyi Novgorod yarmarkasiga borilgan), ikkinchi yo'nalish-Ural (Orenburg va Troitsk shaharlariga), uchinchi yo'nalish-G'arbiy Sibirga. Buxoro xonligidan Sibirga turli xil gazlamalar va kiyim-kehaklar olib borilgan. Xonlik savdogarlari O'rta Osiyo davlatlari ichida son va salohiyat jihatidan ustun bo'lganligi uchun rus rasmiy hujjatlarida butun xonliklarga nisbatan Buxoro, xonliklar aholisi esa, "buxoroliklar" deb yuritilgan [8]. Astraxan shahrida maxsus buxorolik savdogarlar istiqomat qiladigan "Buxoroliklar" nomli mahalla bo'lgan [9]. Buxoro savdogarlari Astraxandan tashqari Tobolsk va Sibirgacha bo'lgan hududlarda savdo qilganlar. Rus podshosi Mixail Fyodorovich buxoroliklarga Astraxan, Qozon, Arxangelsk kabi shaharlarda erkin va uzoq muddatga savdo qilish huquqini hamda ularning xavfsizligini ta'minlashni buyurgan. Bunday imkoniyatlarning berilishi Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasidagi savdo-sotiq ko'laminin yanada kengayishiga va rivojiga hissa qo'shgan. XVII asrda quruqlikdagi savdo yo'llaridan tashqari, suv yo'llaridan ham foydalanilgan holda Rossiya hudulariga borilgan. Shulardan biri, Buxorodan Urganchga, so'ngra, Orol dengizi sohillari bo'ylab Emba va Ural daryolari orqali Astraxanga borilgan. Ikkinchisi, Urganchdan shimoli-g'arb tomonga yurish orqali Mang'ishloq va Qarag'anda bandargohiga borilgan. Savdogarlar bu bandargohdan Kaspiy dengizi orqali Astraxanga o'tganlar. O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boradigan yana bir yo'l janubiy-g'arbiy tomon yo'nalgan bo'lib, Mashhad, Astrobod, Ashraf, Rasht, Talishi, Boku, Darband, Bo'ynashi va Tarki orqali o'tgan. Bu yo'l uzoq masofali bo'lganligi uchun ayrim hollardagina foydalanilgan [10]. Bu davrda Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishdan nihoyatda manfaatdor edi. O'z navbatida o'zbek xonlari hunarmand va savdo doiralari manfaatlaridan kelib chiqib, Rossiya bilan savdo-sotiqni mustahkamlashga alohida e'tiborlarini qaratdilar [11]. Rus davlati siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ham savdo-sotiqni aloqalarini rag'batlantirish yo'lidan borgan. Oqibatda, XVI asr oxiri-XVIII asrning birinchi choragida

Rossiyaning Tobolsk, Tara, Tyumen va Tomskda, keyinchalik Irtish chizig'ida o'z manfaatlarini mustahkamladi. Xiva xonligining Moskvadagi elchisi 1643-yilda shunday mazmunda xat yozdi: "Rus yurti Xoji Tarxondan(Astraxan) har yili 40-50 nafar savdogarlar kelib turadi. Ular Urganchda tijoriy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bu yerdan Buxoroga yo'l oladilar. So'ngra Balxga borib, u yerda 2-3 yillab qolib ketadilar" [12]. XVI asrning ikkinchi yarmida Rus podshosi Ivan Grozniy Qozon va Astraxanni bosib olgach, Rossiya chegaralari O'rta Osiyoga yaqinlashib qoladi. Shundan so'ng, xonliklar va Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada mustahkamlanib, doimiy tus oladi. Ko'pgina tadqiqodchilar Jenkinsonning 1558-yilgi O'rta Osiyoga missiyasini rasmiy savdo aloqalarining boshlanishi deb hisoblashadi" [13]. Bu davrda xonliklar o'zidan kuchli bo'lgan Rus davlati bilan diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga intilganlar. O'z navbatida tarixiy taqozo tufayli Rus davlati ham bunday aloqalarni mustahkamlashni xohlardi. Bu haqida S.V. Baxrushin o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: "Mamlakatning iqtisodiy tarqoqligiga barham berilganligi, uning viloyatlari o'rtasida tovar ayirboshlashning kuchayganligi, savdo munosabatlari o'sganligi, va natijada, joylardagi kichik bozorlarning yagona umumrus bozoriga birlashganligi-markazlashgan yagona davlatning vujudga keltirilishiga sharoit yaratgan asosiy sabablardan biridir" [14]. Rossiya bilan iqtisodiy savdo aloqalarning kengayishi Buxoro xonligi uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Xonlik savdogarlari o'z tovarlarini sotish uchun keng bozorga ega bo'ladi. Shuningdek, doimo bir-birlari bilan adovat va urush kayfiyati hukm surgan xonliklar uchun tashqi quvvatlab turuvchi kuchlar zarur edi. XVI-XVII asrlardagi O'rta Osiyo xonliklari va Rus davlati o'rtasidagi elchilik aloqalari asosan, iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'rta Osiyo bozorlariga rus savdogarlari mo'yna, asal, mum va boshqa mollarni sotish uchun olib kelganlar. Ayniqsa, yoritish ehtiyoji uchun mumga talab katta edi" [15]. XVII asrda Buxoro va Xiva xonliklari elchilari Moskvaga 16 marta, o'z navbatida shu vaqt oralig'ida rus elchilari Buxoro va Xivaga 9 marta keladilar"[16]. Rus savdogarlari xonliklardan shoyi-gazlamalar, gilamlar, qimmatbaho toshlar, ip-gazlama va matolar olib kelib sotishdan manfaatdor edilar. Rus podshosi Ivan Grozniy davrida, 1558-1559-yillarda sayyoh Antonin Jenkenson Xiva va Buxoroga yuborildi. U Angliya va Rossiya elchisi sifatida O'rta Osiyo xonliklarida erkin savdo-sotiq qilish, keltirilgan rus va ingliz tovarlariga soliq solishda yengillik berish haqida muzokaralar olib borish uchun yuborildi. Antonin Jenkensonning bu sayohati haqida V.V. Bartold "Yevropa va Rossiyada Sharqning o'rganilish tarixi" asarida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning o'rnatilishida Rossiya ham emas, buxoroda ham emas, aynan Jenkinson tashabbus ko'rsatganligini ta'kidlaydi" [17]. 1620-yilda rus podshosi Mixail Fyodorovich ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon huzuriga zodagan Ivan Xoxlovni elchi qilib yubordi. U podshoning maktubini xonga yetkazadi. Bu maktubda buxorolik savdogarlar qanday huquqlardan foydalanishsalar, rus fuqarolari ham xuddi shunday huquqlardan foydalanishlari lozimligi ta'kidlangan. 1643-yilda Buxoro xoni Nodir Muhammadxon (1642-1645) rus podshosi Mixail Fyodorovich huzuriga Qozi Nagayni elchi qilib yubordi. Elchi olib borgan maktubda xonning Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini davom ettirish istagi borligi aks etgandi. 1671-yilda Buxoroda bo'lgan rus elchisi Pazuxin podsho Aleksey Mixailovichga Buxoro xoni Abdulazizxonning maktubini olib ketadi. Abdulazizxon maktubda savdo-sotiq munosabatlarini yanada rivojlantirish haqida gapirgandi. 1557-yildan 1682-yilgacha Buxoro va Rossiya davlatlari bir-birlariga 36 marotaba elchi yuborishgan. Bundan kelib chiqadiki, ikkala tomon ham yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishga intilgan. XVII asrda xonliklar asosan, Rossiyaning Volgabo'yi aholisi bilan savdo-sotiq qilar edi. O'rta Osiyo bilan savdo ishlarida Astraxanliklar birinchi o'rinni egallardi. Astraxanliklardan tashqari Saratov savdogarlari, qozonliklar, quyi Novgorodliklar va Astraxan gamizonining kichik harbiy xizmatchilari ham bu savdolarda ishtirok etardi. O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq qilgan rus savdogarlari orasida boy Moskvaliklarning o'rni alohida edi. Boy Moskva savdogarlarining ba'zilar 1000 so'm va undan ortiq miqdorda

savdo operatsiyalarini amalga oshirgan (XVII asrning bir so'mi oltin hisobida 10-15 so'mga teng bo'lgan) [16]. Diplomatik va savdo aloqalarining rivojlanishi Rossiyada ham, O'rta osiyoda ham hunarmandchilikning taraqqiyoti bilan bog'liq edi [18]. Mintaqaning Buxoro, Balx Xiva va boshqa shaharlaridan paxta va ipakdan tayyorlangan gazlamalar (baxmal, zandana, zarbof), kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari (gilam, kigiz, ipak, teri) qimmatbaho toshlar (la'l, yoqut, zumrad) kumush, qalay, selitra, bo'yoqlar, qog'ozlar, otlar va boshqa tovarlarni rus shaharlariga olib borganlar. Rossiya shaharlaridan esa, mo'ynalar, jun matolar, morj va fil suyagi, yog'och idishlar, mum, asal, ov anjomlari, ov qushlari, qurol, oq-dorilar(qo'rg'oshin va porox) olib kelangan [19]. Savdo-sotiq ishlar diplomatik aloqalar bilan chambarchas bog'liq holda olib borilgan. XVII asrning so'nggi choragidan XVIII asrning 20 yillari o'rtalarigacha bo'lgan 50 yillik davr oralig'ida ham bu aloqalar qizg'in davom etdi. Mazkur davr oralig'ida Rossiyaga Buxoro xonligidan uch marta elchi kelgan [3]. 1705-yilda Olimbek boshchiligidagi bir guruh xonlikning diplomatik xodimlari va Mirkubay Mirg'ordayev rahnamoligidagi savdogarlar guruhi Rossiyaga tashrif buyuradi [18]. Buxorolik savdogarlar o'zlari bilan juda katta miqdordagi tovar va mahsulotlarni olib boradilar. Ular Rossiyaning turli shaharlarida bo'ldilar. Astraxan shahrining o'zida ularning 6 ming so'mlik tovarlari sotiladi. 1705-yilning iyulida rus podshosi Pyotr I buxoro xoni Ubaydullaxonga elchi Olimbek orqali javob maktubini yubordi. Unda ikkala davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlar va savdo aloqalarini davom ettirilishi ta'kidlanadi. Pyotr I xonga o'z sovg'a-salomlarini, jumladan, rus oltinini yuboradi. Keyingi safar oradan 11 yil o'tib, 1716-yilda amalga oshirildi. Buxoro elchilariga Qulibek To'pchiboshi boshchilik qildi. Bu elchilik tarkibi elchining ayoli, farzandlari va savdogarlarni o'z ichiga olgan jami, 62 kishidan iborat edi. Buxoro xoni Abulfayzxon elchilar bilan birga 36 nafar rus asirlarini jo'natib yuboradi[20]. Buxoro xoni elchi orqali Rossiya bilan tinchlik o'rnatish, savdo aloqalarini davom ettirish, Astraxanda nohaq ayblanib, Kol oroliga bir umrga surgun qilingan buxorolik savdogarlarni afv etish va 1 elchi yuborishni iltimos qilgan edi [18]. Qulibek To'pchiboshi boshchiligidagi elchilar 1716-yilning iyunida Peterburgda bo'ladilar. Bunga javoban Pyotr I Florio Benevinni elchi qilib Buxoroga yuborishga qaror qildi. Unga juda muhim topshiriqlarni bajarishi vazifasi yuklatiladi. Jumladan, Yo'l-yo'lakay barcha shaharlar, qishloqlarni, qal'a va savdo manzilgohlarini puxta o'rganish, Kaspiy dengiziga quyiladigan daryolarni aniqlash, Buxoro xonligining harbiy ahvoli haqida ma'lumot to'plash, davlatning qo'shni xonliklar va Turkiya bilan munosabatlari qandayligini aniqlash, Abulfayzxoniga rus podshosining yordami kerak ekanligi yo'qligini surishtirib bilish. Shu bilan birga, elchiga Rossiya-Buxoro savdo munosabatlarini yanada kengaytirish yo'llarini topish, xonliklar yerlarida qazilma boyliklar, ayniqsa oltin bor-yo'qligini aniqlash va uni qidirib topish uchun xizmat qiladigan qal'alar barpo etish istiqbollarni o'rganish, shuningdek bu tadbirga buxoroliklarning aniq munosabatini shurishtirib bilish alohida vazifa qilib topshirilgan edi [21]. 1721-yil may oyining oxirlarida elchi Florio Benevin uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tib, Buxoroda keladi. Florio Benevinni 1721-1725-yillar davomidagi sayohati davomida Buxoro xonligining iqtisodiy, siyosiy va xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumotlarni to'pladi [22]. O'rta Osiyo davlatlari va Rossiya o'rtasida savdo-sotiq munosabatlariga to'siq bo'ladigan omillar borligini aniqladi. Bular, xonliklar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zaro ichki kurashlar va savdo karvonlariga tez-tez qaroqchilar hujumlarining bo'lib turishi edi. Shunday bo'lsa-da, bu aloqalar XVIII asr davomida yanada rivojlana bordi [23].

**Xulosa va takliflar.** Ushbu maqolada ashtarxoniy davrida Buxoro xonligining Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalari tarixi va bu munosabatlarning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tilgan. Bu jarayonlarni yoritishda Yevropalik va Rossiyalik elchilar, sayohatchilar va sharqshunoslarning asarlari va esdaliklari shuningdek, mahalliy tarixshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qimmatli ma'lumotlar hisoblanadi. Shuning uchun ham bu ma'lumotlar Buxoro xonligining Rossiya bilan XVII-XVIII asrlardagi iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент., "Шарк". 2001. 275-б.
2. Ханьков Я.В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства. Записки Имп. Рус. Географ. Общества. Кн. V. 1851. – С. 282.
3. Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Пг., 1915. –С.1-2.

4. Руссов С.В. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен донныне. Журн. Мин.Внутр. Дел. Санктпетербург. 1840. –С. 11-14.
5. Фехнер М.В. “Торговля русского государства со странами Востока в XVI веке”. Москва. 1956.// Панков А.В. “К истории торговли Средней Азии с Россией XVI – XVII вв.” / А.В. Панков. – Ташкент: Издание Общества для изучения Таджикистана и иранских народностей за его пределами, 1927.// Мирзо Олим Махдум Ҳожи. “Тарихи Туркистон”. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2003.// Аминов О. “XVI-XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари”. Тошкент. “Правда Востока”, 1958.// Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Сибир орқали Россия билан элчилик ва савдо алоқаларининг ўрнатилиши ҳамда ривожланиши тарихи(қадимги даврлардан то XX аср бошларигача) III жилд. Тошкент. “ЯНГИ АСР АВЛОДИ”. 2012.// Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари(XVI-XX аср рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). Тошкент. 2017.
6. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари(XVI-XX аср рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). Тошкент. 2017. -Б. 3-4.
7. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2003. –Б. 191.
8. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Сибир орқали Россия билан элчилик ва савдо алоқаларининг ўрнатилиши ҳамда ривожланиши тарихи(қадимги даврлардан то XX аср бошларигача) III жилд. Тошкент. “ЯНГИ АСР АВЛОДИ”. 2012. –Б. 5.
9. Костомаров Н.И. Очерк торговли Московского государства в XVI и XVII столетиях. Санкт-Петербург. 1862. –С. 43-44.
10. Юлдашев М. Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. Ташкент: Наука Узб. ССР, 1964. -С. 64-65
11. Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI—XIX вв. Ташкент. “ФАН” 1983. -С. 3.
12. История народов Узбекистана. Т. 2., Тошкент, 1947. –С. 107.
13. Бартольд В. В. История изучения Востока в Европе и в России. С-Петербург. 1911. –С. 153.
14. Бахрушин С.В. Иван Грозный. Москва. «Полиграфкнига». 1945. –С. 70.
15. Фехнер М.В. Торговля русского государства со странами Востока в XVI веке. Москва. 1956. -С. 61.
16. Аминов О. XVI-XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари. Тошкент. “Правда Востока”, 1958. – Б. 6.,7-9.
17. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России : Лекции. чит. в Имп. С.-Петерб. ун-те / В. Бартольд. — Санкт-Петербург : тип. М.М. Стасюлевича, 1911. –С. 154.
18. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией XVI – XVII вв. / А.В. Панков. – Ташкент: Издание Общества для изучения Таджикистана и иранских народностей за его пределами, 1927.-С. 23.
19. Чулошников А.П. Торговля Московского государства с Средней Азией в XVI-XVII веках // Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. вып. 3, ч. I. Л., 1933. –С. 80-84.
20. Сборник князя Хилкова. Петербург, 1879. –С. 545-552.
21. История таджикского народа, т. 2, с. 33. // Аминов О. XVI-XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари. Тошкент. “Правда Востока”, 1958. –Б. 13.
22. Мехалева Г.А. Узбекистан в XVIII-первой половине XIX века. ремесло, торговля и пошлины. Ташкент «ФАН», 1991. –С. 5.
23. История таджикского народа, т. 2, с. 34.



Elyorjon KARIMOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: elyorjonkarimov45@gmail.com

KIUT dotsenti, PhD R.Muxammadiyev taqrizi asosida

#### XX ASR 70-YILLARI OXIRI – 80-YILLARI BOSHLARIDA QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGI (ARXIV MA'LUMOTLARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Markur maqolada Sovet Ittifoqining barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O'zbekiston SSRning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati Qashqadaryo viloyati misolida ko'rsatib berishga harakat qilindi. "Barcha mamlakatlar proletarlari, birlashing!" degan shior har jabhada, ayniqsa, sotsialistik mehnat musobaqasida ustunlik qilib turganligi ko'rsatib berildi. Maqolada Qashqadaryo viloyati mehnatkash aholisining mehnat natijalari va ularga nisbatan bo'lgan ijtimoiy yondashuv haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** Proletariat, sovxoz, kolxoz, kombinat, sabzavotchilik, bog'dorchilik, paxtachilik, g'allachilik, kasaba uyushmalari, sotsialistik musobaqa.

#### AGRICULTURE OF KASHKADARYA REGION IN THE LATE 1970 YEARS - EARLY 1980 YEARS (BASED ON ARCHIVE DATA)

Annotation

In this article, an attempt was made to show the socio-economic policy of the Soviet Union in the agricultural production of the Uzbek SSR, among all allied republics, on the example of the Kashkadarya region. "Proletarians of all countries, unite!" It was shown that the slogan prevailed on all fronts, especially in the socialist labor competition. The article talks about the labor results of hard-working residents of Kashkadarya region and the social approach towards them.

**Key words:** Proletariat, state farm, collective farm, combine, vegetable growing, horticulture, cotton growing, grain growing, trade unions, socialist competition.

#### СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ В КОНЦЕ 1970 - НАЧАЛЕ 1980 ГГ.(ПО АРХИВНЫМ ДАНЫМ)

Аннотация

В данной статье предпринята попытка показать социально-экономическую политику Советского Союза в сельскохозяйственном производстве Узбекской ССР среди всех союзных республик на примере Кашкадарьинской области. «Пролетарии всех стран, соединяйтесь!» Показано, что этот лозунг возобладали на всех фронтах, особенно в социалистическом трудовом соревновании. В статье говорится о результатах труда трудолюбивых жителей Кашкадарьинской области и социальном подходе к ним.

**Ключевые слова:** Пролетариат, совхоз, колхоз, комбинат, овощеводство, садоводство, хлопководство, зерноводство, профсоюзы, социалистическое соревнование.

**Kirish.** Sovet Ittifoqining butun faoliyati davomida marksizm-leninizm ruhida dunyoqarash, partiya va xalqning har bir besh yilliklarda erishgan yutuqlari sarhisob qilinib, 1970 – 1980-yillarda kommunistik bunyodkorlikning "ulug' istiqbol"lari belgilab berildi. «Hamma narsa inson nomidan, hamma narsa inson farovonligi uchun» degan shior ilgari surilsa-da, mehnatkash xalq faqat-faqat ishlashga majbur qilinardi. Kattadan katta ishlab chiqarish rejaları belgilab berilardi. Chunki SSSR tashqi siyosatida G'arb davlatlari, asosan, AQSH bilan juda katta siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy qarama-qarshilik avj olmoqda edi. Bu esa juda katta harbiy xarajat talab qilardi. Shu sababli ham sobiq ittifoq mazkur xarajatlarni mehnatkashlarning o'ta og'ir mehnati evaziga qoplashga harakat qilmoqda edi. Aynan mana shu va boshqa omillar sababli sotsialistik raqobat avj oldirilib, yildan yilga mahsulot yetishtirish rejaları oshirib borilardi. O'ninchi va o'n birinchi besh yilliklarda kommunizmning moddiy-texnik bazasini yaratishda yangi katta qadam qo'yilgani, partiyaning lenincha umumiy yo'nalishi izchil hayotga tatbiq etilayotgani, mamlakat milliy boyligi ko'paygani, uning ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyati yuksalgani, Sovet Ittifoqining mudofaa qobiliyati mustahkamlangani bot-bot takrorlab kelinardi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tarixiylik, tahliylilik, ilmiylik, xolislik va tarixiy jarayonlarga aniq va faktlarga asoslangan holda yondashish tamoyillariga asoslangan holda ma'lumotlar berishga harakat qilindi. Mavzu, asosan, birlamchi arxiv materiallari orqali o'rganildi va davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid statistik va tanqidiy-tahliliy fikrlar bildirildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston KP MQ qishloq xo'jaligiga alohida imtiyozlar berish konsepsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida 1978-yilning sentabr oyida Qashqadaryo viloyatida dastlab 7 ta sabzavotchilik sovxozi va Shahrisabz konserva zavodini birlashtirgan "O'zmevasabzavotsanoat" hududiy mas'uliyati cheklangan jamiyat

birlashmasini tuzdi. Keyinchalik bu sovxozlar soni 18 taga yetdi. Birlashma tomonidan o'ninchi besh yillik (1976-1880) ning birinchi yilida 76 million 700 ming so'mlik sanoat mahsuloti sotildi, bu esa 106,3 foizga to'g'ri kelardi. Ushbu davrda konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish 247 million 500 ming qutini tashkil etdi.

1979-yil qishloq xo'jaligi xodimlari uchun bir muncha mashaqqatli yil bo'ldi. Bu esa har bir jamoa uchun professional yetuklikning katta sinoviga aylandi. Sovet xalqi katta siyosiy va mehnat yuksalish muhitida V.I.Lenin tavalludining 110 yilligini munosib kutib olish uchun qattiq mehnat qildilar. Kommunistik partiya atrofida chambarchas birlashgan sovet xalqi ulkan bunyodkorlik g'ayrati bilan KPSS XX syezdi tomonidan ishlab chiqilgan kommunistik qurilishning ijtimoiy-iqtisodiy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, - degan qarash har bir ishda ustuvorlik qilib turdi. Shu sababli Qarshi tumanidagi Engels nomidagi mehnat sovxozi noqulay ob-havo sharoitiga qaramay paxta dalalarining har gektaridan 1979-yilda 41,5 sentner yoki 4150 tonna "oq oltin" hosili olindi[1]. Ayrim sovxozlarda bu ko'rsatkich har gektardan 60 sentnerga yaqin "oq oltin"ni tashkil qildi.

Bundan tashqari Kitob tumanidagi "Kitob" sovxozi ham qattiq ob-havo sharoitiga qaramay o'z rejalarini muvaffaqiyatli yakunladilar va sotsializmga "sodiq" qolishdi. Davlatga 900 tonnadan ortiq paxta, 7 ming tonna uzum, 10 ming tonnadan ortiq sabzavot, 250 tonna meva, 169 tonna go'sht, 350 tonna sut, 400 ming dona tuxum va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari topshirildi. 10 turdagi mahsulot sifat belgisini oldi va ko'plab turdagi tovarlar esa barcha davlat standartlariga javob beradigan holda ishlab chiqarildi. Davlatga mahsulot jo'natish rejasi ortig'i bilan bajarildi[2]. 1980-yilda davlatga rejadan ortiq 900 tonna paxta, 7 ming tonna uzum, 10 ming tonna sabzavot, 220 tonna go'sht, 600 tonna sut, 400 ming dona topshirishni rejalashtirildi. O'ninchi besh yillikning 4 yiliga nisbatan umumiy o'sish

hajmi 43% ni tashkil etdi. Jumladan, sut mahsulotlari sotish 69%, yog'siz mahsulotlar ishlab chiqarish 89%, hayvon yog'i ishlab chiqarish 13,8% ni tashkil etdi. Mehnat unumdorligi esa 35,9 foizga oshdi va 70% yetdi[3]. Mahsulot sifati yaxshiligi uchun 1979-yilda 6 nafar ishchi xodimlar Viloyat partiya komiteti va Viloyat ijroiya qo'mitasining "Faxriy yorlig'i" bilan taqdirlanishdi[4]. Kombinatda har oyda sotsialistik musobaqa natijalari mahalliy komsomol bilan birgalikda natijalar umumlashtirilib, kvartal yakunida eng yaxshi natija ko'rsatganlarga Sovet Ittifoqi Qizil bayrog'i hamda mukofotlar topshirilardi. Yaxshi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda yaqin kelajakda hal etilishi kerak bo'lgan kamchiliklar ham bor edi, albatta. Jumladan, sut mahsulotlarini sotish uchun ma'lum bir harorat talab qilinadi. Sut mahsulotlari sotiladigan barcha do'konlarda sotuvish moslamalari mavjud emasdi va buning natijasida sut mahsulotlarini saqlash va sotish qoidalariga rioya etilmasdi. Sut mahsulotlarini tashish transporti vositalarida sanitariya holati qoniqsiz darajada yo'lga qo'yilgandi. Ayni shu yillarda G'uzor tumanida ham sut zavodi qurilishi ishlari olib borilmoqda edi. Bundan ilgari qurilgan Qamashi, G'uzor, Dehqonobod tumanlaridagi sut zavodlarida 20 tonnadan 40 tonnagacha sut mahsulotlari ishlab chiqarilardi. Sutning bir qismi Qarshi shahriga yetkazib berilardi.

Yakkabog' tumanidagi "Yakkabog'" qishloq xo'jaligi kolxozlari ham sotsialistik raqobatdan orqada qolmaslik uchun harakat qildi va fidokorona mehnat matonatlarini ko'rsatishdi. O'ninchi besh yillik yakunida 2650 tonna uzum o'miga 3500 tonna uzum yetishtirishdi [5]. Sut esa 340 tonna o'miga 360 tonna, tuxum 365 ming dona o'miga 412 ming dona yetishtirildi. 1981-yilda 324 gektar maydonga mevali daraxt ko'chatlari, 174 gektar maydonga uzum ekishga qaror qilindi. Ushbu jamoa o'z zimmasiga olgan yuksak majburiyatlarini sharaf bilan bajarib, Ittifoq fondiga yanada ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirib berishga harakat qilishdi.

Kuz, qish oylarida aholini sabzavot mahsulotlarini ta'minlash issiqxonalar orqali amalga oshirilardi. 1970-1980-yillarda viloyat issiqxona xo'jaligi, asosan, "Qarshi" sovxozida joylashgan bo'lib, maydoni 2 gektar atrofida edi. Olinayotgan hosil miqdori 55-60 tonnadan yoki 1 m<sup>2</sup> ning hosildorligi 3 kilogrammga to'g'ri kelardi. Bu ko'rsatkich respublika miqyosida 26-30 kilogrammni tashkil qilardi. Bunga asosiy sabab, yetishtirilayotgan hosilni to'g'ri hisob-kitob qilmasdan talon-tarojlikka yo'l qo'yilishi va issiqxona sohasida mutaxassisning yo'qligi oqibati edi. Mavjud issiqxonalarda ishlab chiqariladigan sabzavot mahsulotlari aholini talabini yil davomida qondira olmasdi. Xo'jalik rahbarlari aholini issiqxona mahsulotlari bilan to'la ta'minlashlarini nazarda tutib, kolxoz va sovxozlarda yangi issiqxona qurish, mavjud issiqxonalarini esa rekonstruksiya qilishga alohida e'tibor berishlari kerakligi belgilab berildi. Keyingi yillarda sitrus o'simliklarini yetishtirish maqsadida O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Komiteti, Qashqadaryo viloyat partiya qo'mitasi hamda viloyat ijroiya qo'mitasining kelajakda limon ishlab chiqarishni ko'paytirishi to'g'risidagi qarorlariga asosan Qashqadaryoda 1985-yilga 60 gektarlik limonzorlar barpo qilish, 1990-yilda esa 1200 tonna yoki 12 million dona limon yetishtirish, limonzorlar maydonining teng yarmi ixtisoslashtirilgan Varganza, Yakkabog' sovxozlarida barpo etilishi nazarda tutildi.

Viloyatda shirin-shakar qovun-tarvuz yetishtirish sohasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Ko'kdala tumanidagi Oxunboboyev nomli sovxozning A.Boyqulov boshliq brigadasi har gektaridan 300-400 sentnerdan qovun-tarvuz yetishtirdilar. Ayniqsa Nishon tumanidagi Paxtaobod sovxozining usta mirishkori Hakim Usmonov boshchiligidagi brigada a'zolari 44 turdagi qovun-tarvuz navlarini ekib, yo'qolib borayotgan navlarni saqlab qolish ustida boy tajriba orttirishdi va respublika miqyosida bo'lib o'tgan qovun-tarvuz ko'rigida shu brigadada yetishtirilgan qovun-tarvuzlar yuqori baholandi.

Go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishda yaxshi natijalarga erishildi. Ya'ni 1979-yilda go'sht yetishtirish 117 foizga, sut yetishtirish 110 foizga, tuxum yetishtirish 123 foizga bajarildi. Qoramollardan o'rtacha 407 kilogrammdan go'sht mahsuloti olindi. 1980-yilda go'sht ishlab chiqarishni 25 foizga, sutni 26 foizga va tuxum yetishtirishni 30 foizga oshirish rejasini belgilandi. 1979-yildagi sotsialistik musobaqa natijalariga ko'ra 200 dan ortiq ilg'or ishlab chiqarish ishchilari «Sotsialistik musobaqa g'olibi» unvoniga sazovor bo'ldi.

Qashqadaryo viloyatining 1980-yildagi yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 105,9 foizga bajarildi. Birlashmadagi barcha zavodlar tomonidan yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarildi. Mehnat unumdorligi rejasini 105,2 foizga bajarildi. Rejadan ortiq 3942 dona

meva-sabzavot konservalari tayyorlandi. Bu o'sish 1979-yilga nisbatan 107,4% ni tashkil etdi. Vinolarni quyish rejasini 100 foizga bajarildi. Vino materiallarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, sharbat materiallarini qayta ishlab rejasini ortig'i bilan bajarildi [6].

Ishlab chiqarishni oshirishga zo'r berib targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, zavod va fabrikalardagi sanitariya holati yomon ahvolda edi. Masalan, 1979-yil boshida Shahrisabz konserva zavodi (direktori Jo'rayev Sh.R.) ning sanitariya holati tekshirib ko'rilganda zavod hududi qoniqsiz holatda ekanligi, chiqindilar ishlab chiqarish sexlari yonida ekanligi (aslida chiqindilar zavoddan kamida 25 metr bo'lishi kerak), sanitariya zonasi yo'qligi, talablarga mutlaqo javob bermasligi aniqlandi. Zavodning barcha ustaxonalarda sanitariya va xavfsizlik inspektorlari ham yo'q edi. Ustaxonalardagi pollarni ta'mirlash, devorlarni oqlash talab etilardi. Texnologik jihozlar vaqti-vaqti bilan yuvilmasdi va dezinfektsiyalanmasdi. Buning natijasida korroziyaga duchor bo'lardi. Zavod ishchilari sanitariya-texnik vositalar, ko'rpa-to'shak, kiyim-kechak, poyabzal, fartuklar va hokazolar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan edi. Zavodning kanalizatsiya tizimi ham oziq-ovqat korxonalarini uchun belgilangan talablarga javob bermasdi va rekonstruksiya qilishni talab qilardi[7]. Qashqadaryo viloyatining o'zida "Oziq-ovqat sanoati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat qo'mitasi"ning yangidan tashkil etilganligi ham katta voqealardan biri bo'ldi. Mazkur kasaba uyushmasi viloyat qo'mitasi viloyatdagi ulkan muammolarni hal etishda katta yordam berib turdi.

Butun Respublika bo'yicha sanoatning hajmi 1975-yilga nisbatan 20 foizga, milliy daromad esa 21,8 foizga oshdi. Dehqonchilik sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Respublika bo'yicha mehnatkashlar eng og'ir ob-havo sharoitiga qaramay, davlatga 5 million 762 ming tonna "Oq oltin" topshirdi. Albatta, buning asosiy qismi Qashqadaryo viloyatining mirishkor dalalari hissasiga to'g'ri kelardi: Qattiq va mashqaqatli kurashda, misli ko'rilgan og'ir meteorologik sharoitga qaramasdan viloyatda paxta hosili yetishtirildi va davlatga 536 ming tonna "oq oltin" topshirildi. Viloyatda yillik mehnat unumdorligi rejasini muddatidan ilgari 100,7 foizga bajarildi. Bundan tashqari sifat belgisi bilan 84 ta sanoat mahsuloti ishlab chiqarilardi. Shundan 76 tasi xalq iste'moli mollari edi[8].

"Kamroq xarajat qilib, ko'proq ishlab chiqarish" g'oyasi butun mehnatkashlar orasida tarqatilgan edi. Bu salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarardi, albatta. Biroq kamchiliklar e'tiborga olinmasdan mazkur shior zo'r berib targ'ib qilindi. Partiya va hukumat mehnatkashlar oldiga ichki xazinalarni safarbar etish va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashda tub o'zgarishlarga erishish kerakligini vazifa qilib qo'yardi. Ishlab chiqarishni jadallik bilan ko'paytirish ortidan quvish orqali mahsulotlar sifati pasaya boshladi.

Ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari, birinchi navbatda, mehnat unumdorligiga bog'liq bo'lgani holda, ishlab chiqarish yig'ilishlarini muntazam chaqirish ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, degan mafkuraviy qarash orqali ularga bosim va mafkuraviy tazyiq o'tkazib kelindi.

Barcha korxonalarda sharoitlarni yaxshilash bo'yicha kompleks rejalari ishlab chiqilib, amalga oshirib borilgan bo'lsa-da, ishchilarni xavfsiz asbob-uskunalar, maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari kabi ta'minlash kabi asosiy vazifalar talab darajasida emas edi. Shu sababli 1979-yilning atigi 7 oyida birgina Qarshi novvoyxonasida 4 ta baxtsiz hodisa ro'y berdi, ulardan biri og'ir oqibatga olib keldi. Oddiy mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha yetarlilga ishlar olib borilmaganligi, mashina-tractor parki, asbob-uskunalar, qurilmalarning ishlashini qo'pol ravishda buzish, Qarshi shahri va Yakkabog' tumanidagi sovxoz xo'jaliklari rahbarlarining mas'uliyatsiz munosabati va shu bilan bog'liq muammolar tufayli xo'jaliklarda texnika xavfsizligi talablariga rioya etilmasligi natijasida 1979-yilda bir qator baxtsiz hodisalar sodir bo'ldi. Ishlab chiqarishda shikastlanishlarning oldini olish borasidagi ishlar talab darajasida emas edi. Ishchilar uchun gigiyena va maishiy sharoitlarni yaratish, himoya kiyimlari va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash masalalari qoniqsiz hal qilinardi. Bu borada Kasaba uyushmalari tashkilotlari mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lom-lashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatishlari lozim bo'lsa-da, mazkur vazifalar paysalga solinardi.

Rrostovliklarning "Orqada qolmasdan ishlaymiz" tajribasini ommalashtirish ishlari olib borilardi va har bir sohada sezilib turardi. O'ninchi besh yillikda qishloq xo'jaligi xodimlari ham salmoqli

muvaffaqiyatlarga erishdilar. Jumladan, Besh yillikda 123 ming 350 tonna sabzavot, 12 ming 360 tonna poliz mahsulotlari, 67 ming 610 tonna uzum, 23 ming 825 tonna meva, 5 ming 556 tonna kartoshka, 30 ming 700 tonna g'alla va boshqa ko'plab mahsulotlar yetishtirildi. 1980-yilda davlatga g'alla topshirish rejasi 162,7 foiz, sabzavot 117 foiz, poliz mahsulotlari 120 foiz, kartoshka 119 foiz, pilla 114 foiz, go'sht 104 foiz, tuxum 125,5 foiz, sut 110 foizga oshirib bajarildi.

“O'n birinchi besh yillikda sanoat ishlab chiqarish yanada rivojlanadi. Umuman olganda, viloyatda sanoat mahsuloti bir yarim barobar, mehnat unumdorligi 43-45 foizga oshishi kerak”, - degan fikr ilgari surila boshlandi.

Mehnatkashlar qattiq talab ostida “Besh yillikda 10 yillik topshiriqni bajaramiz” shiori ostida mehnat qilishardi[9]. Sotsialistik raqobat iqtisodiy, ijtimoiy va ta'lim vazifalarini hal etishda yanada yuqori natijalarga erishishga qaratilgan bo'lishi, hamma joyda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moddiy resurslarni tejash, ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish ushbu muammolarini hal qilish bilan yanada chambarchas bog'liq bo'lishi juda muhim edi. Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, ilg'or tajribalarni joriy etish, mehnat estafetasi, ortda qolmasdan ishlash kabi “qimmatli” tashabbuslarni tarqatish har bir korxonaning reja va sotsialistik majburiyatlarini bajarishini ta'minlashning muhim vositasi deb qaraldi.

KPSS ning XXVI syezdida “Mehnatni har bir insonning birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirish”ni yanada rivojlantirish vazifasi qo'yildi. L.I.Brejnev shunday degan edi: “Odamlar o'z mehnat sharoitlari va hayotini yaxshilash uchun doimiy g'amxo'rlikni his qiladigan joyda yaxshiroq, ko'proq ishtiyiq bilan ishlaydilar, chunki inson hayotining kamida uchdan bir qismini ishda o'tkazadi. Ish joyi ustaxonadan kabina va omborlarga qadar qulay bo'lishi kerak!” Biroq amalda bunday balandparvoz gaplarga rioya qilinmas edi. 1981-yildan boshlab Qashqadaryo viloyatida sabzavot yetishtirish 110 foizga, uzumchilik 152 foizga, meva ikki barobarga, poliz mahsulotlari 130 foizga, kartoshka ikki barobarga ko'paytirish kabi ulkan vazifalar ilgari surildi.

XXVI partiya qurultoyida (1981-yil) chorvachilik “Zarba fronti” deb ataldi. Go'sht ishlab chiqarish rejasi 111 foizga, sut 110 foizga, tuxum 131 foizga oshirib bajarildi[10]. “Qashqadaryo” chorvadorlar uyushmasi O'n birinchi besh yillikda oldiga har yili go'sht ishlab chiqarishni 20 foiz, sutni 20 foiz, tuxum ishlab chiqarishni 25 foizga oshirish vazifasi qo'ydi. M.Xasanov, «Moskva», «Yakkabog'» sovxozlari davlatga go'sht topshirishning yillik rejasini tezlik bilan bajardilar. Biroq “Kitob”, “Varganza”, “Qishlik”, “Palandara”, “Kommunist” sovxozlari davlatga go'sht, sut, tuxum sotish rejalarini bajarolmadi.

Kasaba uyushma tashkilotlarining asosiy e'tibori sotsialistik raqobatni yanada takomillashtirish va shu asosda ishlab chiqarish samaradorligini, mahsulot sifatini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, moddiy va mehnat resurslarini tejash, ilg'or ishlab chiqarish tashabbuslarini ommalashtirishga qaratildi.

“Hamma narsa inson uchun!” degan dasturiy maqsad mavjud bo'lib, sovet fuqarolarini hayotiy ehtiyojlarini mumkin qadar ko'proq qondirishga qaratilgan edi. Biroq, aslida vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Odamlar faqat-faqat kommunistik mehnatga majbur qilinardi. Sovuq urush davrida SSSR g'alabasini ta'minlash Ittifoq rahbariyati

uchun hayotiy zaruratga aylantirilgan edi. Bu esa sotsialistik mehnat lagerlari faoliyatining kengayishiga olib kelardi. Jumladan, 1982-yil 23-iyulda Qashqadaryo viloyati Oziq-ovqat sanoati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat qo'mitasi raisi B.Qurbonov quyidagicha fikr bildiradi: “Keng ko'lamli Oziq-ovqat dasturi eng murakkab va muhim xalq xo'jaligi muammolarini kompleks hal etishning vositasidir. Viloyatning oziq-ovqat sanoati xodimlari, barcha sovet xalqlari singari, o'rtiq L.I.Brejnev tomonidan belgilangan oziq-ovqat dasturini hayotiy muhim masala deb bilishadi. SSSRning 1990-yilgacha bo'lgan davr uchun oziq-ovqat dasturida belgilangan vazifalar yuqori, shiddatli va mas'uliyatli bo'lib, ularni faqat hammaning faol ishtirokida hal qilish mumkin va hech kim chetda qolishi mumkin emas”. Davr va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat nuqatayi nazaridan bildirilgan mazkur fikrga hech bir izohning hojati bo'lmas kerak.

**Xulosa.** Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, viloyatning ko'plab sovxoz va zavodlarda mehnat intizomi past, kadrlar almashinuvi yuqori, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilardi. Masalan, ishga joylashish uchun murojaat qilinganda ma'muriyat asossiz ravishda ishchi va xizmatchilardan ma'lumotnomalar va mehnat qonunchiligida nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilardi. Ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyruqlar o'z vaqtida chiqarilmasdi. Qonunga muvofiq yangi xodimlar uchun sinov muddati belgilanmasdi. Ishchilarni ularning roziligisiz boshqa ishga o'tkazish holatlarini yetarlicha uchratish mumkin edi. Ishchilarning haq-huquqlarini chetlab o'tish holatlari ko'plab uchrab turardi. Yetarli miqdordagi mehnat daftarchalari mavjudligiga qaramay, sovxozlar barcha ishchilari uchun mehnat daftarchalarini to'ldirilmadi. Rag'batlantirish va mukofotlar haqidagi ma'lumotlar ham mehnat daftarchalariga kiritilmagan edi. Bularning barchasi Mehnat inspeksiyasi va Ishchilar qo'mitalari tomonidan bo'ysunuvchi korxonalarda mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan yetarlicha nazorat olib borilmaganligi hamda kadrlar tarkibini malakali ishchilar bilan mustahkamlashga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi natijasi hisoblanardi.

Ko'pgina xo'jaliklar tomonidan davlatga topshirilayotgan mahsulotlarning sifatiga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Sabzavotlar, meva, uzum va boshqa mahsulotlar standart talablari asosida keltirilmas edi. Pomidorlar pishmagan, o'rta pishgan, olmalar texnik jihatdan pishmagan holatda navlariga ajratilmagan holda har xil turdagi transport vositalariga yashiksiz to'kilgan holatda tashib keltirilardi. Bu bir maqsad – belgilangan rejani bajarish birinchi o'rinda turganligining natijasi edi.

Meva, uzum va sabzavotlardan yuqori hosil yetishtirishning asosiy shartlaridan biri – texnika va mexanizmlardan unumli foydalanishga bog'liq bo'lsa-da, biroq bog' va tokzorlar qatorlari orasiga ishlov berishda maxsus mexanizmlar yetarli bo'lmay, uzum va meva hosillarini terish, toklarni kesish va ko'mish asosan qo'l kuchi bilan bajarilardi. Bu esa yetishtirilayotgan mahsulotning tannarxini oshishiga olib kelardi. Shu sababli qishloq xo'jaligida mashinalashgan mexanizatsiya tizimini joriy qilish muhim edi. Biroq bu kabi muhim ehtiyojlarga mazkur davrda yetarlicha e'tibor berilmaganligini yuqoridagi ma'lumotlar asosida ko'rish mumkin edi.

## ADABIYOTLAR

1. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 7-bet
2. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 8-bet
3. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 9-bet
4. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 10-bet
5. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 14-bet
6. QVDA 518-fond, 1-ro'yxat, 57-yig'ma jild, 9-bet
7. QVDA 518-fond, 1-ro'yxat, 16-yig'ma jild, 26-bet
8. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 2-bet
9. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 21-bet
10. QVDA 522-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 27-bet



**Abbosjon MIRZORAXIMOV,**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori  
E-mail: rektor@mrdi.uz

DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

### HISTORY OF PRINTED BOOK-MAKING TECHNIQUES, COMPONENT PARTS, ART DECORATIONS

Annotation

The article provides information about the technique of making lithographic books, the history of used ornaments.

**Key words:** lithography, manuscript, "rag paper", calligraphy, shirach, paper cut, chromolithography, chain, shamsi

### ИСТОРИЯ ТЕХНИКИ ПЕЧАТНОГО КНИЖНОГО ИЗДЕЛИЯ, КОМПЛЕКТУЮЩИЕ ЧАСТИ, ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ УКРАШЕНИЯ

Аннотация

В статье представлены сведения о технике изготовления литографических книг, истории используемых орнаментов.

**Ключевые слова:** литография, рукопись, «тряпичная бумага», каллиграфия, ширах, вырезка из бумаги, хромолитография, цепочка, шамси.

### TOSHBOSMA KITOBLARNI TAYYORLASH TEXNIKASI, TARKIBIY QISMLARI, BADIY BEZAKLARI TARIXI

Аннотация

Maqolada toshbosma kitoblarning tayyorlanish texnikasi, ishlatilgan bezaklar tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** toshbosma, qo'lyozma, "latta qog'oz", xattotlik, shirach, qog'ozrez, xromolitografiya, zanjirak, shamsi

**Kirish.** Toshbosma kitob bosishning shunday turiki, bunda toshning sirti bosma forma bo'lib xizmat qilgan, matn yoki tasvir toshbosma toshiga quyuq toshbosma tushi yoki toshbosma qalami bilan tushirilgan. Rossiya toshbosma san'ati xususida tadqiqot olib borgan, P. Suvorovning ta'kidlashicha toshbosmagacha bo'lgan davrda hech bir kitob bosish usuli matn va suratni yuksak darajada tasvirlash imkoniga ega bo'lmagan. Boshqa kitob bosish usullaridan farqli ravishda toshbosma usuli oddiyligi, matn va suratlarini tez hosil qilishi, har qanday formaga olishning yuqoriligi, matnning tiniqligi, nashrining tezligi, tan narxining arzonligi va kam vaqt sarflanishi bilan ustunlikka ega bo'lgan.

**Asosiy qism.** Toshbosma usulda kitob bosish uchun ikki xil mashina mavjud bo'lib, bulardan biri qo'l stanogi bo'lsa, ikkinchisi avtomatik ravishda ishlaydigan tok yoki bug' mashinasi edi.

Texnologik jihatdan toshbosma quyidagi qismlarga bo'lingan; Toshbosma toshi.

Toshbosma tushi, toshbosma qalami.

Toshbosma rangi.

Tosh biriktiriladigan maxsus stol.

Toshbosma toshining asosiy qismini uglekislyu kalsiy-ohaktosh tashkil etadi. Bundan tashqari tosh tarkibida kam miqdorda boshqa moddalar mavjud. Tasvir yoki matn toshga tushirishda maxsus tayyorlangan qalamlardan foydalanilgan. Toshga kimyoviy eritma yordamida harflar o'yilib, so'ngra bo'yoq bilan qog'ozga bosilishi natijasida yozuvli sahifa hosil bo'lgan.

Toshbosma tushi va qalamini tayyorlash juda murakkab jarayon bo'lib, asosiy qismi moy va sovundan iborat bo'lgan. Uning tarkibi sovun, yog', qorakuya, mum, yelimning yuqori haroratdagi qorishmasidan tayyorlangan. Bunday qalam va tushlarda ishlash jarayonida tarkibida yog'li kislotalar va tuz singdirilgan toshning yuza qismida matn paydo qilishda foydalanilgan. Bu joylarda o'ziga yog'li bo'yoqni qabul qiladigan suvni qabul qilmaydigan plyonkalar hosil bo'lgan.

Toshbosma bo'yog'i quruq kukundan hamda birikadigan moddadan iborat bo'lgan. Matnda asosan qora rang ishlatilgan. Sarg'ish qizil ohorli rang asosan suratlarda ishlatilgan. Suratlarining boshqa joylari qo'lda bo'yali, qolgan joylari tabiiy ravishda oq bo'lgan.

Shuningdek, rangli nashr etadigan toshbosma ham mavjud edi.

Bu toshbosma "xromolitografiya" deb atalgan. Bunday bosmaxonada nashrlarni 2-3 hattoki besh xil rangda chop etishgan. Jumladan, Samarqanddagi G.I. Demurov toshbosmasi rangli nashrlarni amalga oshira olgan. Toshbosmada kamchiliklar ham mavjud edi. Jumladan, matn va suratni birdaniga bosish imkonini bermas edi, ular alohida-alohida bosilar edi.

Bosmaxonalarda ko'proq fin qog'ozini ishlatilgan. Bu qog'oz unchalik sifatli bo'lmay, qo'qon qog'oziga qaraganda qalin, dag'al va ko'rinishidan ancha xunuk bo'lgan. Kitob sahifalariga albatta pushti yoki yashil, ko'kish yoki sarg'ish rangdagi qog'ozlar ishlatilgan. Oq qog'oz ishlatish hollari kamdan-kam uchragan. Ayrim hollarda bir necha rangdagi qog'ozlar bir-biriga monandlashtirilib qo'llanilgan.

Toshbosma kitoblar ham qo'lyozma kitoblar singari badiiy qo'lyozma san'atining ko'p yillik ajoyib an'analarini to'la-to'kis o'zida aks ettirgan. Eng yaxshi qo'lyozma kitoblarga xos bezaklar (naqsh, chiziqlar, suratlar, katak, ramkalar va h.) toshbosma kitoblarda ham keng rasm qilingan.

Toshbosma kitoblarda titul list deb ataladigan, muqovadan keyingi varaq qo'llanila boshlandi. Qo'lyozma kitoblarda bunday varaq yo'q edi. Kitob sahifalarini kataklarga bo'lish, atroflarini to'g'ri, ilon izi va egri chiziqlar bilan ajratib chiqish usullari qo'lyozma kitoblarda qo'llanib kelinganlaridan ancha farq qiladi. Toshbosma kitoblarda sahifalarning chetida qoldiriladigan joylar ancha kengroq olinadigan bo'ldi, tekst oralarida naqsh solish yoki surat uchun joy qoldirib ketish odat bo'lib qoldi. Ba'zan hech narsa solmasdan o'zicha ochiq qoldirilgan edi.

Muqovalarining formalari va bezagi jihatidan toshbosma kitoblar qo'lyozma kitoblardan diyarli farq qilmagan. Toshbosma kitoblarning muqovalari asosan qalin kartondan yasalar edi. Charm muqrvali kitoblar juda oz uchrar edi. Muqovalarning ishlash uslubi qo'lyozma kitoblarning yasash uslubidan aytarli farq qilmas edi.

Muqova yelimplash, sahifalarga bo'lib buklash, tikish, qirg'ish, zarhalla og'ir qo'l mehnati bilan bajarilgan.

Muqova bo'limi kengaytirilib, qog'oz va kartonlar uchun katta sklad qurildi. Chetdan to'rt bosma mashina, nusxa oluvchi mashina, qirquv, chiziqlovchi va muqovalsh bo'limlari uchun zarur bo'lgan zarhallavchi, qisqichlovchi va boshva poligraf uskunalarini keltirilgan.

Qator Sharq musulmon davlatlarida o'rta asrlarda ilm-fan, madaniyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda kitobat san'ati, jumladan muqovasoqlik sohasida ham yangidan yangi yutuqlarga erishildi. Muqovasoqlik qadimiy soha bo'lib, uning yuzaga kelishi yozuv va qog'ozning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Bizgacha yetib kelgan qadimiy muqovalardan biri IX-X asrlarga oid bo'lib, Misrda yasalgan. Ushbu katta hajmdagi Qur'oni karimning muqovasi livan kedr daraxtidan qilingan, fil suyagi va har xil daraxt parchalari qadab naqshlangan. Bunday jildi yog'ochdan qilingan muqovalar juda kam uchraydi.

Daslab muqovalar oddiy bosma geometrik naqshlar bilan bezatilgan bo'lsa, keyinchalik muqova jildining ustki qismiga o'simliksimon naqshlar bilan uyg'unlashtirilgan geometrik shakllar va zarhall bosma naqshlar tushiriladigan, ichki qismiga esa charmdan kesib

tayyorlangan jimjimador naqshli kesma yopishtiriladigan bo'ldi. Arablari bilan O'rta Osiyoda kirib kelgan kitob muqovalarni bezatishdagi bunday uslub o'zida ayrim mahalliy ta'sirlarni aks ettirsa-da, XV asrgacha ushbu ko'rinishni deyarli saqlab qoldi.

Faqatgina temuriylar davriga kelib, muqovalarning bezatilishida yangi uslublar paydo bo'ldi. Bunda XIV–XV asrlarda kitobat san'ati o'ta qadrlangan Samarqand va Hirotda ijod etgan ustalar muhim rol o'ynadi. O'z saroylarida boy kutubxonalar tashkil qilgan temuriy hukmdorlar u yerda turli o'lkalardan taklif qilgan kitobat san'ati ustalarini ham jamlaganlar. Amir Temur davrida Samarqandga Suriya va Misrdan muqovasoz ustalar olib kelingan, Shohrux davrida Hirotda, saroy kutubxonasida, muqovazozlik ishining rivojida muhim rol o'ynagan ustalar ishlagan, Boysunqur mirzo davrida Tabrizdan kitobat san'ati ustalar taklif qilingan.

Sharq qo'lyozma kitoblari uchun namuna vazifasini o'tagan arab kitoblarining muqovasi asosan yumshoq charm, papirus yoki qog'ozni presslab hosil qilingan kartondan bo'lgan. O'rta asr arab muqovazozligi mustaqil soha sifatida hunarmandchilikda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yevropa kitob muqovalari ham arab muqovazozligi texnologiyasi asosida yaratilgan.

Qo'lyozma kitob muqovalari yaxshi sifatli hunarmandchilik mahsuloti ekanligi bilan birga yuksak didli badiiy san'at namunasi hamdir. Musulmon muqovalarining o'ziga xos bir jihati muqova chap jildining qopqoq sifatida davom etishidir. Qopqoq kitobning qalinligi bilan mos keluvchi to'g'ri to'rtburchakli va muqovaning o'ng jildini ustiga o'tgan besh burchakli ikki qismdan tashkil topgan. Muqovaning ikki jildi va klanning atrofiga chiziqli hoshiyalar chizilgan: chiziqning soni va ular orasidagi masofa turli xil bo'lgan. Ancha murakkab bo'lgan hoshiyalar bosma naqshli chiziqlardan iborat bo'lgan; ba'zan bunday bosma naqshli chiziq bilan ikkinchi va uchinchi marta aylantirib chiqilgan. Jildning hoshiya bilan chegaralangan qism to'liq turli geometrik figuralar bilan bezatilgan yoki faqat uning o'rtasiga va burchaklariga bezak berilgan. Muqovaga bezak berishdagi mahorat shakllarni ajratib ko'rsatish, har bir detalni alohida tasvirlash va simmetrik joylashtirish, jildning kerakli joylariga jimjimalar, nuqtalar, bosma naqshli bezaklar berishda namoyon bo'lgan. Muqovazozlar o'z ishlari bilan haqiqiy san'at asari yaratganlar.

Muqova jildining markazi aylana, bodomsimon va yulduz shaklidagi bezaklar bilan bezatilgan; bodomsimon shakl ancha keyin ishlatila boshlangan bo'lsa-da, keng qo'llanilgan. Arab-musulmon madaniyatning ta'sirini YevropaUyg'onish davri muqovalarining namunasi bo'lgan bodomsimon markaziy bezakli muqovalarda ko'rish mumkin. Bodomsimon shakl nafis chirmashgan naqsh bilan to'ldirilgan, cheti kamdan kam ma'lum bir chiziq bilan aylantirib chegaralangan, odatda uning chegaralari bodomsimon ko'rinishni hosil qilgan shakllardan hosil qilingan. Markaziy bezaklar uchun yulduz, romb kvadrat va boshqa shakllar uncha ko'p ishlatilmagan. Charm muqovalarning naqshli bezaklari qo'lyozmani yotqizib saqlaganda bezaklari o'chib ketmasligi uchun botiq qilib tushirilgan, bosma naqshning balandligi hoshiya balandligidan past bo'lgan. Muqovaning naqshli bezaklari jadval (yo'l-yo'l tasvirli bosma naqsh), zanjirak ("kurtaksimon" (buyraksimon) bosma naqshli), o'rtadagi oval naqsh – shamsi (quyosh) deb atalgan.

Muqovaning ichki qismiga odatda qog'oz yelimlangan, ba'zan charm ham ishlatilgan.

Muqovazozlikda XIV asrdan ishlatila boshlangan charmdan kesib tayyorlangan o'simliksimon ko'rinishdagi nafis naqshli bezak XV asrda o'zining mukammal ko'rinishiga ega bo'ldi va muqovaning ichki tomonini bezatishda keng qo'llanilgan; u rangli qog'ozning ustiga yopishtirilganda juda chiroyli ko'rinish hosil qilgan.

Muqovazozlik san'ati XVI–XVII asrlarda ayniqsa rivojlandi; bu davrda yaratilgan muqovalar tasviriy bezaklarning ko'pligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. XVI asr boshlarigacha ularni tayyorlash uchun faqat charmdan foydalanilgan bo'lsa, asr o'rtalariga kelib laklangan karton muqovalar urf bo'la boshlaydi. Laklangan muqovalarning jildi yelim va ganch aralashmasi bilan qoplangan pape-mashedan bo'lgan; shuning uchun unga istalgan tasvirni turli xil bo'yoqlarda chizish mumkin bo'lgan. O'rta Osiyo laklangan muqovalarining fors muqovalaridan farqli tomoni shundaki, unda hech qachon jonli mavjudod – hayvon, qush tasvirlanmagan. Muqova uchun kartonlar odatda yozuv qog'ozini qo'shib yelimlash orqali yasalgan. Yelimlab tayyorlangan karton mag'zi-yi soxta deyilgan. Karton muqovaning boshqa bir turi mag'zi-yi rixta deyilgan, ya'ni quyma karton. Bunday karton kitob muqovalarini bo'lingandan so'ng kesilgan qog'oz qiyiqlaridan tayyorlangan.

XVII–XVIII asrlarga kelib O'rta Osiyo muqovalari o'zining original ko'rinishiga ega bo'ldi, Sharq boshqa hududlarida bunday muqovalarni uchratish mumkin bo'lmagan. Bunday o'ziga xoslik avvalo jildi alohida, yon tomoni alohida charmdan qilingan – yarimcharm muqovaning keng tarqalishi bilan izohlanadi. Bunday muqovaning yon tomoni qizil va yashil rangda, jild qismi esa malla, qizilga xos ranglar va yashil rangda bo'lib, naqshli tamg'a tushirilgan. Muqovaning yon tomoni ishlov berilgan eshak terisidan qilingan, bunday teri saura yoki savra deb atalgan. Muqova yon tomonining yuqorisi va pasti kichkina qiyimcha bilan tugilgan, undan ushlab kitobni javondan olish oson bo'lgan. Xiva xonligida o'ziga xos qora rangdagi muqovalar keng tarqalgan.

XVIII asrdan boshlab O'rta Osiyoda tayyorlangan muqovalardagi "lola" naqsh orasiga usta nomi va yaratilish tarixi bitilgan. Bunday muhr muqovaning old va orqa jildiga ikki martadan past va yuqori qismiga tushirilgan, ularning o'rtasiga o'simliksimon naqshlardan hosil qilingan turunj tushirilgan. Ismli muhrlar naqshli muhr bilan bir xil masofada joylashmagan.

XVIII asrda hech qanday bezagi bo'lmagan butun charmdan qilingan malla muqovalar ham uchraydi. Bu davrda yarim charm muqovalar keng tarqalgan bo'lsa-da, laklangan muqovalar ham uchraydi. XIX asrga kelib O'rta Osiyo muqovalari oldingilaridan ancha farq qiladi. Hatto bu asrning birinchi va ikkinchi yarmida yaratilgan muqovalarda ham farqni ko'rish mumkin: ancha arzon bo'lgan yarim charm muqovalar juda keng tarqaladi; sariq rangli charm muqovalar paydo bo'ladi; muqovani bezatishda hoshiyalar keng qo'llanilgan; qizil muqovaga yashil rangdagi, qora rangdagi muqovaga zarhal, sariq rangdagi muqovaga esa qizil muhr tushiriladigan bo'ldi.

Bu davrda laklangan muqovalar faqat Qo'qon va Xivada qilingan. Xivada yon tarafi qora charmdan bo'lgan laklangan muqovalar keng tarqalgan. XIX asrning ikkinchi yarmida qo'qonliklar eng yaxshi muqovazozlar hisoblangan.

XIX asr oxiri XX boshlariga kelib qo'lda qilingan muqovalar o'rni asta-sekin fabrika muqovalari egallay boshladi.

## ADABIYOTLAR

1. Якубовский Ю.О. Переплетное ремесло у туземцев Самарканда // Справочная книжка Самаркандской области на 1896 г. 1896 г., вып.IV
2. Чавров Г.Н. К изучению Среднеазиатского книжного переплета. Народы Азии и Африки. 1964. №2
3. Хамид Сулейман. Проблемы изучения художественной рукописи и искусства каллиграфии эпохи тимуридов. Тезисы доклады. Самарканд-Ташкент. 1969.
4. Казиев А. Художественное оформление азербайджанской рукописной книги XIII–XVII веков. -М.: Книга. 1977.
5. Исмаилова Э. Искусство оформления среднеазиатской рукописной книги XVIII–XIX вв. -Т.: Фан. 1982.





UDK 94(575.1):339.9

Elyor NABIYEV,  
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD

UrDPI dotsenti, tarix fanlari doktori D.Abdullayev taqrizi asosida

### O'ZBEKISTON ROSSIYA IQTISODIY-SIYOSIY ALOQALARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston va Rossiya davlatlari o'rtasida ikki tomonlama strategik hamkorlikning qariyb o'ttiz yillik davri mobaynida savdo, iqtisodiyot, energetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim, madaniyat hamda boshqa sohalarida tuzilgan ikki yuzdan ziyod ikki tomonlama hujjatlar muhim asos bo'lganligi, davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorligining barcha jabhasi bo'yicha ishonchli, ochiq muloqotda uchrashuvlarning natijadorligi qayd etilgan. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy aloqalar tarixiy ildizlarga ega bo'lib, mustaqil O'zbekistonning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ikkala davlatning iqtisodiy hamkorligi va siyosiy munosabatlari ko'p jihatdan o'zaro manfaatlar asosida qurilgan.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, eksport, siyosat, madaniyat, iqtisod, mehnat migratsiyasi, ta'lim, fan, madaniyat, diplomatik aloqalar, savdo-sotiq, sanoat hamkorligi, investitsiya.

### ЭКОНОМИКО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ С УЗБЕКИСТАНом РОССИИ

Аннотация

В статье подчеркивается, что за почти тридцатилетний период стратегического партнерства между Узбекистаном и Россией важное значение имеют более двухсот двусторонних документов, подписанных в таких сферах, как торговля, экономика, энергетика, сельское хозяйство, образование, культура и другие. Государственные лидеры проводили встречи в духе доверительного и открытого диалога, отмечая их результативность. Экономико-политические отношения между Узбекистаном и Россией имеют исторические корни и играют важную роль в развитии независимого Узбекистана. Экономическое сотрудничество и политические отношения обеих стран в значительной степени основываются на взаимных интересах.

**Ключевые слова:** сотрудничество, экспорт, политика, культура, экономика, трудовая миграция, образование, наука, культура, дипломатические отношения, торговля, промышленная кооперация, инвестиции.

### ECONOMIC-POLITICAL RELATIONS WITH UZBEKISTAN RUSSIA

Annotation

The article emphasizes that the nearly thirty-year period of bilateral strategic cooperation between Uzbekistan and Russia has been based on more than two hundred bilateral documents established in trade, economy, energy, agriculture, education, culture, and other areas. The heads of state have noted the effectiveness of meetings held in a trustworthy and open dialogue regarding all aspects of bilateral cooperation. The economic and political relations between Uzbekistan and Russia have historical roots and play a significant role in the development of independent Uzbekistan. The economic cooperation and political relations of both countries are largely based on mutual interests.

**Key words:** cooperation, export, politics, culture, economy, labor migration, education, science, culture, diplomatic relations, trade, industrial cooperation, investment.

**Kirish.** Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy-gumanitar sohalarida bir nechta davlatlar bilan, jumladan Janubiy Koriya, Xitoy, AQSH, Yaponiya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bu mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi alohida o'rin tutadi.

So'nggi yillarda Rossiya - O'zbekiston munosabatlari ikki davlat rahbari - Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putinning siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli jadal va izchil rivojlanib bormoqda. Bunday tendensiya nafaqat siyosiy muloqot, balki savdo-iqtisodiy, harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorlik, gumanitar hamda madaniy sohalarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixiga nazar solsak bu aloqalar 1992-yil 20-martda o'rnatilgan. 1992-yil 30-mayda davlatlar o'rtasida davlatlararo aloqalar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risida shartnoma imzolangan[1].

2004-yil 16-iyundagi strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va 2005-yil 14-noyabrdagi ittifoqchilik aloqalari to'g'risidagi shartnomada harbiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarida rossiyalik-o'zbek hamkorligining rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari qayd etilgan.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ko'p qirrali bo'lib, ularning ichida savdo, investitsiyalar va sanoat hamkorligi muhim o'rin tutadi. 2022-yilda O'zbekiston Rossiya bilan savdo aylanmasi 5 milliard dollarni tashkil etdi. O'zbekistonning eksportida paxta, meva-sabzavotlar, tekstil mahsulotlari, Rossiyaning eksportida esa mashina va uskunalar, neft va gaz mahsulotlari, oziq-ovqatlar mavjud[2].

O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida Rossiya uchun eng muhim savdo hamkori hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama savdo aylanmasi 5,4% ga oshib, 9,884 milliard dollarni tashkil etdi. Rossiya O'zbekistonning tashqi savdo hamkorlari orasida Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga, Rossiya Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari Mikhail Galuzin IV Markaziy Osiyo xalqaro muhokama klubi "Valday" konferensiyasining ochilishida aytishicha, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro savdoda milliy valyutalarda hisob-kitoblarning ulushi 55% ni tashkil etadi.

Ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri neft-gaz sohasi hisoblanadi — xususan, qazib olish, transport va uglevodород xomashyolarini qayta ishlash, ayniqsa, tabiiy gaz. Gaz qazib olish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiya va Turkmanistondan keyin uchinchi o'rinda turadi va jahondagi eng yirik gaz qazib oluvchi davlatlar qatoriga kiradi (yilda 63-65 milliard kub metr gaz).

Rossiya O'zbekistonga investitsiya kirishida muhim o'rin tutadi. Rossiya kompaniyalari O'zbekistonda energetika, transport, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarida faoliyat yuritmoqda. Masalan, "Lukoil" va "Gazprom" kompaniyalari O'zbekistonning energetika sektorida muhim loyihalarni amalga oshirmoqda.

Siyosiy jihatdan O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi aloqalar mustahkam va o'zaro hurmatga asoslangan. Ikkala davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti) va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qiladi. O'zbekistonning

mustaqil tashqi siyosati, o'zaro manfaatlar va xavfsizlik masalalarida Rossiya bilan hamkorlik qilishni ko'zda tutadi.

2023-yil iyun oyida O'zbekiston hukumati "Gazprom" bilan Sankt-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida respublikaga tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha ikki yillik shartnoma imzoladi. Kunlik yetkazib berish hajmi 9 million kub metrni, yillik hajmi esa deyarli 2,8 milliard kub metrni tashkil etadi[3]. 2023-yil 7-oktabrda Novy-Ogaryovoda Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston liderlari Vladimir Putin, Qasym-Jomart Toqayev va Shavkat Mirziyoyev videokonferensiya orqali ushbu kelishuv doirasida gaz yetkazib berishni boshlashdi, tranzit Qozog'iston orqali amalga oshiriladi (yoqilg'ining bir qismi Qozog'istonga ham yetkaziladi). Shuningdek, "Gazprom" 2024-yilning o'rtalarida O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston bilan o'rta muddatli 15 yillik shartnomalarni tuzishni rejalashtirmoqda. 2024-yilning fevralida O'zbekiston hukumati respublikaning magistral gaz tizimini modernizatsiya qilishni rejalashtirayotgani haqida xabar berildi. Bu orqali Rossiyadan gaz importini 3,5 baravar oshirish, ya'ni kuniga 9 million kubometr dan 32 million kubometr gacha oshirish maqsad qilingan.

2024-yil 19-fevralda Rossiya hukumati o'rinbosari – sanoat va savdo vaziri Denis Manturov ish safari bilan O'zbekistonga tashrif buyurdi. 22-aprelda Denis Manturov Toshkentda "Innoprom" ko'rgazmasining plenarny sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekistonga tashrifi doirasida Manturov bosh vazir Abdulla Aripov va Rossiya-O'zbekiston iqtisodiy hamkorlik bo'yicha komissiyaning hamroh rahbari, vitse-prezident Jamshid Xo'jayev bilan ish uchrashuvlarini o'tkazdi. O'zbekistonning vitse-prezidenti Jamshid Xo'jayev "Innoprom. Markaziy Osiyo" ko'rgazmasida Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi investitsion loyihalar portfeli allaqachon 20 milliard dollardan ortiq ekanligini ma'lum qildi.

O'zbekistonning Rossiya bilan aloqalari 2016-yildan keyin yanada kuchaygan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari natijasida ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatlar o'rtasida madaniy, ta'lim va ilmiy almashuvlar ham amalga oshirilmogda. O'zbekiston va Rossiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida birgalikda ishlamoqda. Ikkala davlatning xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'zaro hamkorlik qilishi, mintaqaviy muammolarni hal etishda qo'shma chora-tadbirlar ko'rishi muhimdir. Mamlakatlar ta'lim, axborot makoni va O'zbekistonda rus tilining saqlanishi sohalarida faol hamkorlik qilmoqdalar. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bir nechta Rossiya oliy o'quv yurtlarining filiallari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Toshkentda MGIMO, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiy universiteti, Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya davlat pedagogika universiteti va butun Rossiya davlat kinematografiya universitetining filiallari mavjud. "MISIS" milliy tadqiqot texnologik universitetining filiallari Almalik shahrida joylashgan. Jizzaxda Qozon (Volga) federal universitetining filiallari mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-134282>
2. Azimov Habibullo, Madaminova Durdona (2021). Xalqaro xavfsizlik o'quv qo'llanma.
3. Равшанов И. Чоризминг Ўрта Осиё хонликларига экспансияси даврида хонликлар билан Россия ўртасидаги ижтимоий-сиёсий, савдо-иқтисодий ва дипломатик муносабатлар (XIX асрнинг 2-ярми – XX асрнинг бошлари). – Тошкент.: «Abu matbuot-konsalt» нашриёти,
4. <https://lex.uz/docs/-6502534>
5. <https://ria.ru/>

O'zbekistonda o'qiyotgan talabalar soni bo'yicha Rossiya oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston barcha yaqin va uzoq xorij mamlakatlari ichida yetakchi o'rinda turadi. Rossiya oliy o'quv yurtlarida va ularning filiallarida 63 mingdan ortiq o'zbekistonlik talabalar o'qimoqda, ulardan 11,7 ming nafari bepul ta'lim olmoqda. 2023-2024 o'quv yili uchun O'zbekistonga Rossiya oliy o'quv yurtlarida federal byudjet hisobidan 800 ta joy ajratilgan. O'zbekistonda Rossiya fan va madaniyat markazi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston rossiyaliklar uchun tobora jozibador turistik mamlakatga aylanyapti[4].

O'zbekiston statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya respublikaga turizm bo'yicha strategik hamkor hisoblanadi – rossiyalik sayyohlar oqimi O'zbekistonga keladigan xorijiy mehmonlar sonidan an'anaviy ravishda 1,5-2 baravar ko'p. Rossiyalik sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurishda to'rtinchi o'rinda turadi, ular O'zbekiston bilan qo'shni mamlakatlardan – Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistondan kelgan mehmonlarga nisbatan kam. 2023-yilda Rossiyadan O'zbekistonga turistik maqsadlarda 714 282 kishi kelgan, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 567 725 kishi edi[5].

**Xulosa.** Bugun O'zbekiston tovar ayirboshlash hajmining 18 foizi Rossiyaga to'g'ri kelmoqda. Tovar ayirboshlash ko'paymoqda: pandemiyaga qaramay, o'tgan yili 15 foizdan ko'proqqa oshgan. Bu ko'rsatkich hatto murakkab davrda ham o'zaro hamkorlik muvaffaqiyatli kechayotganini aniq-ravshan ko'rsatib turibdi. Tashrifdan avval juda salmoqli ishlar qilindi. Uchta katta tadbir: hududlar, ta'lim va media forumlari o'tkazildi. Bugun 14 milliard dollarlik loyihalar ustida ish olib borilmoqda. 2020 yilda o'zaro savdo hajmi 5,6 milliard dollardan oshgan bo'lsa, joriy yilning 10 oyida ushbu ko'rsatkich 6 milliardga yetib, yil yakuniga qadar 7 milliard dollarga yaqinlashishi kutilmoqda. Keyingi to'rt yilda O'zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni ikki barobarga ko'payib, qariyb 3 mingtani tashkil etadi. Bugun O'zbekiston iqtisodiyotida Rossiyadan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi va jadal o'sishda davom etmoqda. Uchrashuv O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlanib borishini yana bir bor qat'iy tasdiqladi. Davlatlar rahbarlari Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risida Qo'shma bayonot qabul qildilar. Tashrif doirasida jami 18 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik faqat va faqat ikkala mamlakat farovonligi, iqtisodiyoti ravnaqi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, ularning osoyishtaligi va kelajak taraqqiyotiga xizmat qilajak. Joriy yilning noyabr oyidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan Rossiyaga qilgan bir kunlik tashrifi jarayonida Kremlda oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tdi va bu uchrashuvda "O'zbekiston nafaqat eng yaqin qo'shnimiz, balki ittifoqdoshimizdir. Biz O'zbekistonni aynan shunday qabul qilamiz. Bu yirik mintaqaviy davlat bo'lib, bizlarni tarix nuqtai nazaridan ham, bugungi kunda ham ko'plab jihatlar bog'lab turadi", dedi Rossiya Prezidenti.



**Arslonbek NUROV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: nurov.arslon777@gmail.com*

*O'zMU professori A.Xoliqulov taqrizi asosida*

### THE TAX SYSTEM RELATED TO LAND OWNERSHIP IN THE SECOND HALF OF THE 18TH CENTURY - THE MIDDLE OF THE 19TH CENTURY IN THE EMIRATE OF BUKHARA

Annotation

In this article, the tax system of the Emirate of Bukhara in the second half of the 18th century – the middle of the 19th century, the amount of taxes collected from farmers and their distribution, during the reign of the Mangit dynasty, is studied. It is indicated that sources and literature written in a certain period were used in the research work. The negative consequences of taxes on the way of life of the peasants have also been shown.

**Key words:** Bukhara Emirate, Amir Khaydar, Amir Nasrullakh, taxes, khiroj, khiroji muazaf, khiroji mukassama, mulki-ushr or dakhyak, tanabona, treasure.

### НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА, СВЯЗАННАЯ С ЗЕМЛЕВЛАДЕЕНИЕМ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XVIII - СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Аннотация

В данной статье исследуется налоговая система Бухарского эмирата во второй половине XVIII - середине XIX века, размеры налогов, взимаемых с земледельцев, и их распределение, в период правления династии Мангит. Указывается, что в исследовательской работе использовались источники и литература, написанные в определенный период. Показаны также негативные последствия налогов на образ жизни крестьян.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Амир Хайдар, Амир Насрулла, налоги, хиродж, хироджи музаф, хироджи мукассама, мулки-ушр или дахьяк, танабона, сокровища.

### XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI – XIX ASR O'RTALARIDA BUXORO AMIRLIGIDA YER EGALIGI BILAN BOG'LIQ SOLIQTIZIMI

Аннотация

Ushbu maqolada mang'itlar sulolasi hukmronligi davridagi Buxoro amirligining XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning o'rtalaridagi amirlikning soliq tizimi, dehqonlardan olinadigan soliqlar miqdori va ularning taqsimlanishi tadqiq qilingan. Tadqiqot ishida ma'lum davrda yozilgan manba va adabiyotlardan foydalanilganligi ko'rsatilgan. Soliqlarning dehqonlar yashash tarziga salbiy oqibatlar ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, amir Haydar, amir Nasrullo, soliqlar, xiroj, xiroji muazaf, xiroji muqassama, mulki ushr yoki daxyak, tanabona, xazina.

**Kirish.** XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi mang'itlar hukmronligi davrida amirlik iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik va undan keladigan soliqlar tashkil etganligini tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Amirlik aholisining 85 foizini dehqonlar tashkil etgan holda, dehqonchilik aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan.

Amirlik tomonidan joriy etilgan soliqlar, asosan, amir va uning oilasi, amaldorlar foydasiga undirilgan. Amirlida soliqlar miqdorini belgilashda va ularning yig'ib olinishida shariat qonun-qoidlariga qat'iy amal qilingan. Lekin manba va adabiyotlarda manfaatlar ham ustun qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Buxoro amirligining XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalaridagi yer egaligi bilan bog'liq soliq tizimi mustaqillik davrida alohida bir mavzu sifatida to'liq yoritilmagan. Manba va adabiyotlarning umumlashtirilgan holda o'rganilishi tadqiqotning yanada mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalaridagi Buxoro amirligining yer egalik munosabatlarining ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishini nisbiy ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, sovet davri tarixchilari tadqiqotlari; ikkinchisi, mustaqillik davri tarixchilarining tadqiqotlari hamda uchinchisi, xorij tarixchi-olimlarining tadqiqotlaridir.

Buxoro mang'it amirlarining yer egaligiga doir amalga oshirgan yoki oshira olmay qat'iy bir tartibda qotib qolganligini sovet davrida tadqiq qilingan A.A.Semenovning “Очерк поземельно-податного и налогового устройства в Бухарском ханстве” (1929); M.N.Rostislavovning “Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае”; M.A.Abduraimovning “О некоторых категориях феодального землевладения и положении крестьян в Бухарском ханстве в XVI – начале XIX века” (1963), “Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара” (1961), “Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – начале XIX

века” (1970); K.M.Mirzayevning “Амляковая форма феодальной земельной собственности в Бухарском Ханстве” (1954); A.Majlisovning “Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века” (1967) asarlarida ko'rish mumkin.

Mustaqillik davrida esa J.M.Shodiyev, A.A.Odilov, R.Xoliquva, N.Oblomurodov, F.Tolipov, A.Zamonov o'z tadqiqot asarlarida Buxoro amirligining XVIII-XIX asrning siyosiy tuzumi bilan birgalikda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini ham kiritib o'tgan. Iqtisodiy hayotida yer egaligi va undan keladigan soliqlar muhim o'rin tutadi.

Yuri Bregelning “The new Uzbek states: Bukhara, Khiwa and Khoqand, ca. 1750–1886.” Wolfgang Holzwarthning “The Uzbek state as reflected in eighteenth-century Bukharan sources.” Robert D. McChesneyning “Waqf in Central Asia” asarlarida yerga egalik munosabatlari asosan umumiy yoritilgan. Asarlarda soliq tizimi alohida bo'lim sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, xorij tadqiqotlarining amirlik manbalari va sovet davri tadqiqotchilarining tadqiqotlaridan foydalanib uni yoritishga harakat qilinganini ko'rish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosini asosan tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Ushbu metodning qo'llanilishini shunda ko'rishimiz mumkinki, ma'lumotlar faktik jihatdan adabiyotlardagi aniq ma'lumotlarga bog'lanadi, tahlil qilinayotgan mavzu xronologik jihatdan ketma-ketlikda yoritiladi, aniq hodisa va jarayonlar tizimli o'rganiladi. Bundan tashqari, tadqiqot ishida empirik tadqiqot metodlari, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, umumlashtirish, tushuntirish, retrospektiv va qiyosiy-tarixiy tahlillar qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Buxoro amirligida barcha soliqlar ichida o'sha davrda mavjud boshqa xonliklar – Xiva va Qo'qon xonliklari singari eng kattasi xiroj tashkil qilgan. Xiroj hosilning ma'lum qismidan natura shaklida to'langan. Uning miqdori esa hosilning uchdan, to'rttdan, ayrim hollarda, beshdan bir qismi ko'rinishida bo'lgan. Bu davrda xiroj solig'ining ikki turi qo'llanilgan. Bular: xiroji

muazaf (yoki xiroji vazifa) va xiroji muqasama. Xiroji muazaf yerdan olinadigan soliq (belgilangan yerdan pul va ma'lum miqdorda don bilan olingan) bo'lib, bu yerga ekin ekish yoki ekmaslikdan qat'i nazar mahsulot va pul tarzida yilda bir marotaba olingan (ayrim tadqiqotlarda, bir yilda 2 marta – bahor va kuzda yig'ilgan [1]).

“Risolai Habibiya” asari muallifi Ibodulla ibn Xo'ja Orifi Buxoriy xiroj turlari haqida shunday yozadi: “Xiroj ikki turga bo'linadi: muazaf va muqassama. Xiroji muazaf ma'lum, xiroji muqassama olinadigan hosilning 1/3, 1/4, 1/5 qismi yoki davlat rahbarining kam yoki ko'p belgilashiga bog'liq”. Sherobod bekligida bug'doy va arpadan olingan hosilning 1/5, paxta, kunjut va boshqa ekinlardan 1/4 miqdorida xiroj solig'i olingan [2]. L.N. Sobolev ma'lumotiga ko'ra, Buxoro amirligida xiroji muazaf quyidagi miqdorda olingan: 1 tanob bug'doy ekilgan yerdan 2 tanga yoki 15 funt bug'doy; 1 tanob beda ekilgan yerdan 2 tanga; 1 tanob mevali bog'dan – 12 tanga; uzumzordan 18 tanga [3]. Xiroji muqasama yerdagi hosildan olinadigan soliq (hosilning beshdan, oltidan, sakkizdan bir qismi miqdorida to'langan) bo'lib, yerlarning turi, viloyatlarga qarab turlicha tarzda belgilangan. To'lanadigan soliq hajmi, odatda, donni yanchib ko'rish yo'li bilan aniqlangan bo'lib, uning miqdori turlicha: Buxoro va Samarqand shaharlari hamda ularga tutash hududlarda u 6 pudga teng bo'lgan [4]. XIX asrning boshlarida yirik shaharlar atrofida va boshqa yerlarda xirojning bir qismi pul bilan yig'ib olina boshlangan. Soliqlar odatda, bug'doyning bozordagi narxidan kelib chiqib belgilangan [5]. Qancha xiroj to'lanishi quyidagicha belgilangan: hosil yetilgan paytda amlokdor o'z kishilari bilan dehqonlar dalasiga chiqib borgan (u yerda uni qishloq amini yoki oqsoqoli va dehqonlar kutib olishgan) va amlokdor dala necha tanob (Buxoro amirligidagi hisob bilan bir tanob yer 2500m<sup>2</sup> ga yaqin) ekanligini “ko'z bilan chamalab” o'lchagan va qancha xiroj to'lanishini belgilagan [6]. Dehqonlar agar amlokdorlarning o'zleri istagancha soliq belgilashiga qarshilik ko'rsatishga harakat qilsalar, qishloq oqsoqoli va o'z qo'shnilarining guvohligi bo'yicha avvalgi yillardagi soliqlar olinish miqdorini aytib, ularga qarshilik qilsalar, amlokdorlar dehqonlarga yanada ko'p soliqlar solib, butunlay xonavayron qilishlari mumkin edi. Dehqon amlokdor kelmaguncha hosilni yig'ib ola olmagan. Shuning bilan, agar amlokdorlar dalaga chiqishga mas'uliyatsizlik qilsa, ya'ni don mahsulotlari pishib yetilgan paytda kelmasa, don mahsulotlari tabiiy ofatlar natijasida kamayib dehqonning hosiliga ziyon yetkazgan. Lekin amlokdorlar dehqonlardan belgilangan soliqlarning barchasini undirib olganlar. Mulki xirojning olinishi tarixda taamuli qadim deb ham yuritilgan [7]. Buxoro amirligida umumiy hisobda 50 ga yaqin soliqlar mavjud bo'lganligi va bular dehqonlarni yanada xonavayron qilganligini ko'rish mumkin.

M.A. Abduraimovning tadqiqotlarida, amir Haydar davrida (1800-1826) XIX asrning boshlarida Buxoro amaldorlarining yetishtirilgan hosilidan 30 dan 33,3 foizgacha soliq undirilgani ko'rsatilgan [8]. Uning davrida yana Buxoro amirligida xiroj solig'i qisman pul shaklida, qisman mahsulot shaklida undirilgan va bunda ba'zi bir viloyatlarning ustunlik tomonlari ham hisobga olingan [9]. Etnograf K.Shoniyozov G'ijduvon va Vobkent beklklaridan 1917-yilgacha xiroj solig'i 40 foizgacha olinganini ta'kidlab o'tgan [10]. Amir hududlardagi hosildorlikka qarab soliq miqdorini quyidagicha belgilagan: “Ma'lum qilamanki, Karmananing Xonim va Kasaba kanallari atrofidagi hududdan va pastrog'idagi bog'i teparog'dan Xon chorbog'dan olinadigan soliq quyidagicha belgilansin. Karmanaga yaqin hududdan – bir tanob yerdan – 8 tangagacha, Karmanadan beriyoqda – 7 tanga, boshqa hududlardan 6 tanga, Zarafshon daryosi shimolidagi yerlardan esa 5 tanga undirilsin. Ko'p ham, kam ham belgilangandan ortiq undirilmasin” [11].

Mulki hurri-xolis ma'lum shaxslar berilgan yer bo'lib, uning egasi yer solig'idan ozod etilgan. Uning egasi amir tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lishi va shu yorliq tufayli u soliqdan ozod etilgan. Bunday yerlar katta hududlarni tashkil etgan. Lekin unda ishlovchi dehqon yer egasiga barcha soliqlarni to'lagan.

Bekliklardagi mulki ushr yoki daxyak hosilning 1/10 qismi miqdorida din ulamolari foydasiga olingan bo'lib, daxyak solig'idan keladigan pullar asosan, xayriya maqsadlarida ishlatilgan [12]. Undan madrasa talabalariga maosh, amir saroyi va bek qarorgohidagi Qur'on tilovat qiladigan qorilarga xizmat haqi sifatida berilgan. Denovdagi Said otaliq madrasasi, Sherobodagi Said Vaqqos madrasasi va masjidlarga mulki ushr solig'ini to'lash nazorati qozining zimmasida bo'lgan [13]. Vaqf yerlaridan ham davlat xazinasiga soliqlar undirilgan.

Amaldorlar davlat oldidagi xizmatlari uchun ham yer solig'i – xiroj va tanobonaning ma'lum qismidan ozod etilgan. Amir davlatga

xizmat qilayotgan amaldorlarning ayrimlarini tanoba solig'idan ozod qilining uning xatlarida amaldorlar ro'yxati keltiriladi. Soliqdan shuningdek, hukmdorlar avlodlari ham ham ozod etilgan. Masalan, Amir o'z xatida Amir Doniyoldiy (1758-1785) hukmronligi yilida ishlagan amaldorlar avlodlari shuningdek, Abulfayzxon Abdug'ozixon (1750-1785) qizining nevarasi xiroj solig'idan ozod qilinganini ko'rsatib o'tadi [14].

Amir Shohmurod davrida shaharning yuqori tabaqa aholisi barcha turdagi soliqlardan ozod etilgan bo'lib, tarxon yorlig'i berilgan (tarxon yorlig'i 1920-yilga qadar saqlanib kelingan) [15].

Amlak yerlari miqdorini doimiy ravishda yaroqsiz va bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirib, sug'orish orqali ko'paytirib turishgan. Bunday yerlarni o'zlashtirib sug'organ dehqonlar ma'lum yillar davomida davlat tomonidan soliqlarni to'lashdan ozod etilgan, lekin keyinchalik barcha qatori belgilangan tartibda bir xil soliq to'laganlar.

Aholi yer solig'idan tashqari, har bir tanob bog' yoki polizga maxsus soliq tanob puli, bedazorga alaf puli to'laganlar. Ikkalasi bitta nom bilan tanobona yoki tanob puli deb atalgan. Bu soliqlarning miqdori yerning bozorga yaqinligiga va yana bir qator omillarga ko'ra aniqlangan. XIX asrning 50-yillarida amir Nasrullo davrida (1826-1860) bub u soliqlarga ayrim o'zgarishlar kiritilgan [16]. Zarafshon daryosi bo'yidagi bir qancha dehqonlar polizlarning o'z uylaridan uzoq bo'lganligi va ularga yaqin joylardagi polizlarga qaraganda o'sha yerlarda ishlash og'irligi sabab qilib ko'rsatishib, tanob pulini kamaytirishini so'rab iltimos qilganlar. Amir esa bu iltimos-talablarini inobatga olib, polizdan olinadigan maxsus soliq o'rniga qo'sh pulini joriy qiladi. Bunda omochga qo'shiladigan bir juft ish hayvoniga (qo'sh) va bir mavsumda 48-50 tanob yerni ishlay olishiga qarab soliq solingan. Biroq bu soliq keyinchalik asosiy soliqlarga qo'shimcha ravishda barcha dehqonlarga solinadigan bo'lgan, dehqonlar esa bu soliqlarni qarshiliksiz to'lashga majbur edilar. Buxoro amirligida yer o'lchovi sifatidan tanob va qo'sh kabi o'lchovlar ishlatilgan. Bir qo'sh yer 43 tanob yerga teng bo'lgan [17]. XIX asrning o'rtalarida Samarqand tumanida yerlarning sug'orilishiga, bozorga yaqin-uzoqlikligiga va yana boshqa omillarga qarab, har bir juft ish hayvonidan olinadigan qo'sh puli buxoriy tangada 1 so'm 20 tiyindan 4 so'mgacha bo'lganligi ta'kidlanadi [18]. Shu bilan birgalikda, ish hayvonlaridan olinadigan maxsus yig'im yaksara ham mavjud bo'lib, bunda har bir juft ho'kiz yoki ot hisobidan bir botmon (turli hududlarda turlicha miqdorda bo'lgan, masalan, Buxoro va Samarqand hududlarida 6 pud) miqdorida bug'doy undirib olingan. Agar dehqonda bir bosh ish hayvoni bo'ladigan bo'lsa, u yarim botmon miqdorida nimsara bug'doy berishi lozim bo'lgan. Barcha donli ekinlar va paxtadan natira shaklida kafsana solig'i olingan [19]. Amir Nasrullo davrida boshlab yer egaligining tanho shakli keng tarqala boshlagandan so'ng, xazinaga eng ko'p soliq tanho yerlaridan tusha boshlagan.

Buxoro amirligida soliqlarni yig'ish bilan devonbegi shug'ullangan bo'lib, u soliqlar ro'yxatlarini doimiy tuzib borgan.

XVIII asrning oxirlarida yozilgan “Majma al-arqom” asarida soliqlar va hisob-kitob uchun maxsus 2 ta: avarija va tavjiha nomli qayd daftarlari bo'lganligi ta'kidlangan. Manbaga ko'ra, barcha soliq to'lovlari 4 ta xazinada jam bo'lgan [20]. Buxoro amiri xazinasiga tushadigan soliqlar “Bayt ul-mol”da saqlanib, xazinaning 4 ta xonasi bo'lganligi qayd etiladi:

Bayt-ul moli zakot (1-10), xums (1-5). Bu xazinadan faqir va beva-bechoralarga nafaqa berilgan;

Bayt-ul moli xiroj, jiz'ya va musulmon bo'lmagan savdogarlardan olinadigan soliqlar. Bu xazinadan qo'shinga, din vakillariga, amaldorlarga va mamlakat obodonchiligi uchun mablag' ajratilgan;

Bayt-ul moli tarokat. Bu xazinadan kambag'allarga, yetimlarga va sog'lig'i yomonlarga mablag' ajratilgan;

Bayt-ul moli muktot, ya'ni bu daromadlar tushadigan xazina. Bu xazinadan birinchi, ya'ni Bayt-ul zakotdan foydalanishgan foydalanishgan [21].

Og'ir soliqlar, shuningdek, amirlikning ichki siyosati va tabiiy ofatlar aholining isyonlarini keltirib chiqaradi. Shulardan biri XIX asrdagi eng yirik isyonlardan 1810-yildagi Buxorodagi qo'zg'olon hamda 1821 – 1825-yillardagi xitoy-qipchoqlarning Miyoqoldagi isyonini ko'rish mumkin [22].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro amirligidagi yerlardan olinadigan soliq Sharqiy Buxoro va G'arbiy Buxoro hududlarida katta farq borligini ko'rish mumkin. Sharqiy Buxoro yerlaridan olinadigan soliqlar asosan viloyat beklari va amlokdorlar tasarrufida bo'lib, soliqlar asosan ularning foydasiga

undirilgan. Sharqiy Buxorodagi hukmdorga tegishli yerlar nihoyatda unumdor va serhosildor bo'lgan. Buxoro amirligida faqatgina mulki hurri-xolis yerlaridagina soliq olinmagan, qolgan barcha yer egaligidan barcha soliqlar undirib olingan. Bu esa o'z navbatida, soliq

tizimidagi adolatsizlikni ham ko'rsatadi. Bu adolatsizliklar, o'z navbatida esa, aholining qo'zg'alishiga sabab bo'lganligini ko'rish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Одилов А.А. Бухоро амирлигида миллий озошлик харакалари тарихи (Абдумалик тўра бошчилигидаги халқ озошлик харакаати мисолида). Тар. ф.н.дисс. Тошкент – 2003. – 26 б.
2. Qobulov E.A. Sharqiy Buxoro tarixi / O'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 65 b.
3. Qobulov E.A. Sharqiy Buxoro tarixi / O'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 65-66 b.
4. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. - 83 б.
5. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari): uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Tamaddum”, 2022. – 146 b.
6. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. – 80 б.
7. Холиқова Р. Бухоро-Россия: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Т.: “O'qituvchi” НМИУ, 2005. – 98 б.
8. Абдураимов М.А. Некоторые предварительные соображения о письмах эмира Хайдара. Известия АНУз.ССР. Серия общественных наук, 1959. – №6. – С. 26-27.
9. Холиқова Р.Э. Бухоро амирлигидаги солиқ тизими. ЎзМУ хабарлари. 2017. 1/1. – 94 б.
10. Чехович О.Д. О размере хараджа в Бухаре XIX века. Общественных науки в Узбекистан, 1961. – №3. – С. 38.
11. Холиқова Р.Э. Бухоро амирлигидаги солиқ тизими. ЎзМУ хабарлари. 2017. 1/1. – 94 б.
12. Холиқова Р. Бухоро-Россия: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Т.: “O'qituvchi” НМИУ, 2005. – 98 б.
13. Qobulov E.A. Sharqiy Buxoro tarixi / O'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 70 b.
14. Холиқова Р.Э. Бухоро амирлигидаги солиқ тизими. ЎзМУ хабарлари. 2017. 1/1. – 95 б.
15. Qobulov E.A. Sharqiy Buxoro tarixi / O'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 70 b.
16. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. – 82 б.
17. Холиқова Р. Бухоро-Россия: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Т.: “O'qituvchi” НМИУ, 2005. – 99 б.
18. Ўзбекистон ССР тарихи. Ўзбекистон Фанлар Академияси. 1957. 1 том. 2-китоб. – Б. 42-43.
19. Одилов А.А. Бухоро амирлигида миллий озошлик харакалари тарихи (Абдумалик тўра бошчилигидаги халқ озошлик харакаати мисолида). Тарих ф.н.дисс. Тошкент – 2003. – 26 б.
20. Мирза Бади диван. Мажма ал-аркам (введение, перевод, примечания и приложения А.Б.Вильдановой). – М.: Наука, 1981. – С. 16-18.
21. Холиқова Р.Э. Бухоро амирлигидаги солиқ тизими. ЎзМУ хабарлари. 2017. 1/1. – 95 б.
22. Астанова Г.Ю. Документы из архива Бухарских ханов о восстании в Мианкале (20-е годы XIX века). Общественных науки в Узбекистан, 1989. - №1. – С. 44.



UDK: 331.5-055.2

*Shohsanam RAZZOQOVA,*  
*O‘zbekiston Jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: razzoqova22@bk.ru*

*PhD, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida*

#### MEASURES TO PREVENT UNEMPLOYMENT AMONG WOMEN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE (1991-2024)

Annotation

In today's technological age, gender equality has become one of the main problems of our social life. However, this ideology did not become a powerful ideology for increasing the status of women in society. However, reforms aimed at raising the career of women in society have been implemented in our country in order to give our women an important role on the world stage or in the job market. These reforms serve not only in constitutional decisions and laws, but also as a program for expanding women's opportunities for education and employment. This article describes in detail the measures to prevent unemployment among women in the years of independence.

**Key words:** women's role, social problems, gender equality, financial independence, State program, etc.

#### МЕРЫ ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ БЕЗРАБОТИЦЫ СРЕДИ ЖЕНЩИН В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (1991-2024)

Аннотация

В нынешний технологический век гендерное равенство стало одной из главных проблем нашей общественной жизни. Однако эта идеология не стала мощной идеологией повышения статуса женщин в обществе. Однако в нашей стране были реализованы реформы, направленные на повышение карьерного роста женщин в обществе, чтобы дать нашим женщинам важную роль на мировой арене или на рынке труда. Эти реформы служат не только конституционными решениями и законами, но и программой расширения возможностей женщин для образования и трудоустройства. В данной статье подробно описаны меры по предупреждению безработицы среди женщин в годы независимости.

**Ключевые слова:** роль женщин, социальные проблемы, гендерное равенство, финансовая независимость, государственная программа и т. д.

#### MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDA ISHSIZLIKNING OLDINI OLISH CHORALARI (1991-2024 YILLAR)

Annotatsiya

Bugungi texnologiya asrida gender tengligi ijtimoiy hayotimizning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Biroq bu ideologiya jamiyatda ayollar mavqeyini oshirish uchun kuchli mafkura bo‘lmadi. Vaholanki, dunyo minbarlarida yoki ish bozorida ayollarimizga muhim rol berishimiz uchun Davlatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi martabasini ko‘tarishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar nafaqat konstitutsiyaviy qarorlar, qonunlarda va balki xotin-qizlarning ta‘lim va ish topishdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun dasturlamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlikning oldini olish choralari haqida atroflicha bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlarning roli, ijtimoiy muammolar, gender tengligi, moliyaviy mustaqillik, Davlat dasturi va h.k.

**Kirish.** Bandlik nafaqat daromad va shaxsiy qoniqish manbai, balki shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning muhim sohasi va ijtimoiy mavqeyini belgilovchi omillardan biridir. Ish ayollar hayotida erkaklarnikiga qaraganda bir oz boshqacha rol o‘ynaydi. O‘tgan o‘n yilliklarda keng tarqalgan ayollar bandligining yuqori darajasi 1990-yillarga qadar davom etdi. 1989-yildan keyin u biroz pasaygan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda u 52% atrofida saqlanib qoldi [1]. Tug‘ruq va tug‘ish ta‘tilining uzayganligi sababli yosh ayollarning bandligi darajasining pastligi, keksa ayollar o‘rtasida esa pensiya yoshidan keyin ishlashni davom ettirayotganlar sonining kamayishi, shuningdek, umuman ishsizlik darajasining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, uy bekalari sonining biroz oshgani kuzatildi. Umuman olganda, ayollarning nisbatan yuqori bandligining asosiy belgilari hali ham mavjud: ayollarning yuqori malaka darajasi va ularning ishlashga qiziqishi, ish beruvchilarning ayol xodimlarni ishga olishga tayyorligi, aksariyat oilalarda ikkita (yoki undan ko‘p) ish bilan ta‘minlanganligi. Ayollar shaxsiy yoki oilaviy sabablarga ko‘ra ishlashni to‘xtatish ehtimoli ko‘proq (erkaklar uchun 13% ga nisbatan 22%). Erkaklar va ayollarning ishini yo‘qotish foizi taxminan bir xil bo‘lib, ayollar uchun 19% va erkaklar uchun 16%: ayollarning 26% va erkaklarning 28% qismi esa ish beruvchi tomonidan bo‘shatilishi darajalarini ko‘rsatadi [1]. Ayollar uchun ishsizlik xavfi ortib borayotgani gender farqlarini aks ettiradi, chunki erkaklar ham, ayollar uchun ham past ma‘lumot va keksa yosh (past malaka bilan birga) bilan kuchli bog‘liqlik mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni [1] ushbu muammolarni hal qilish maqsadida qabul qilingan.

O‘zbekistonda aholini doimiy ish bilan ta‘minlash hamma vaqt muammolardan biri bo‘lib kelgan. Aholi sonining yildan yilga o‘sishi yangi-yangi ish joylarini talab etgan. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Respublikamizda ishsizlik ishga layoqatli kishilarning 0,4% atrofidadir. Bu ko‘rsatkich mehnat birjalariga murojaat etgan ishsizlar sonidir, aslida esa ishsizlarning soni ushbu ko‘rsatkichdan ancha ko‘p.

Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishi, ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash, munosib yashash va mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, davlat boshqaruvidagi, muhim hukumat qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini faollashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, o‘z iqtidorlarini turli jabhalarda namoyon etishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berish, ijtimoiy masalalarni hal etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy sohada, tadbirkorlikda, fan va texnika taraqqiyotidagi o‘rni kengaytirish kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e‘tirof etildi. Haqiqatdan ham oxirgi 3-4 yil ichida mamlakatimizda gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror taraqqiyot dasturining eng asosiy tamoyillariga ham mosdir. Zero, BMTning barqaror taraqqiyot dasturida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohalarda faol ishtirok etishini ta‘minlash masalasi alohida o‘rin olgan [2].

Mehnat va bandlik vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, hisobga olinmagan ishsizlik 5,5% dan ortiqroq. Ularning 60% ziyodi ayollardan iboratdir. Ishsizlik malakasi yo‘q yoki kam kishilar orasida yuqori. 2021 yilning sentabr oyida vazirlikning Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan respublikamizning 108 ta shahar va tumanlarida navbatdagi ijtimoiy

so'rov o'tkazildi [2]. Tadqiqot davomida 500 ta o'zini-o'zi boshqarish organlari, 5 mingga uy xo'jaliklari hamda 26,500 ming nafar fuqarolar qamrab olindi. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida mehnat resurslari soni 19 322,8 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 101,1 foizga yoki 201,4 ming kishiga oshgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** 1995-2008 yillarda O'zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan bir qator huquqiy normativ hujjatlar qabul qilingan, ammo ushbu huquqiy hujjatlar davr nuqtai-nazaridan eskirganligi bois tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish funksiyasini to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi [3]. Shu sababli ko'plab mehnat migrantlari xorijiy davlatlarda huquq va qonuniy manfaatlari yetarli darajada himoya qilinmagan deb izohlash mumkin. 2016-2020 yillarda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan barcha huquqiy normativ hujjatlar yangilanib, Xalqaro mehnat tashkiloti va BMTning qator hujjatlariga shu bilan xorijiy mamlakatlar qonunlari zid kelmaydigan ravishda qayta qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilinishi tashqi mehnat migratsiyasidagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning mehnatga oid huquqlarining asosi yanada mustahkamlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi ijtimoiy faol yoshlar qatlami bilan bo'lgan uchrashuvda "Bugungi kunda muhtaram opa-singillarimiz jamiyatimizda olib borilayotgan o'zgarish va yangilanishlar jarayonida, boshqaruv tizimida, tadbirkorlik, ilm-fan, sog.,liqni saqlash, madaniyat va san'at sohaslarida, mahallalarda qanchalik fidokorona mehnat qilib kelayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz" degan edilar [4]. Shuningdek, 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalari ajratilib, 320 ming xotin-qizlar doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi. 2021-yilda 190 ming nafar ayollar kasb-hunarga o'qitildi. 2020-yilda yo'lga qo'yilgan "Ayollar daftari" tizimi doirasida 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berildi. 2021-yilning o'zida 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi, 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliygohlarga qabul qilindi, yana 1 ming 800 nafariga kontraktlari to'lab berildi. Natijada 2021-yilda oliygohlarga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi (2016-yilda bu ko'rsatkich 38 foiz bo'lgan). Shuningdek, 1 ming 153 nafar ayolga yuqori texnologik tibbiy operatsiyalar bepul o'tkazildi [7].

**Tahlil va natijalar.** Umuman olganda, O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham amin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Ayollarning mehnat

huquqlarini himoya qilish, kafolatlarini kuchaytirish – ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarining eng muhim jihatlaridan biri. Xususan, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddat bola parvarishida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolda tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash ishlari olib borish, shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirganlariga ko'maklashilib, biznes g'oyalari tayyorlashda konsultativ yordam berish bugungi kun talabi bo'lib kelmoqda [5]. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bilim va kasbiy ko'nikmalar egallab, munosib ish topishlariga ko'maklashish, salomatligini saqlash, uy-joy masalalarini hal etish borasida tizimli ish olib borilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayollar hozirda kasbiy maktablarga erkaklarnikiga deyarli teng bo'lgan holda kirgan bo'lsalar-da, ular hali ham o'z kasblarining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilish ehtimoli ancha past. Professional zinapoyaga ko'tarilishdagi muvaffaqiyatning yetishmasligi, nima uchun daromad taqsimotining yuqori qismidagilar uchun ish haqi farqi eng katta bo'lib qolayotganini tushuntiradi. Shu boisdan ham mamlakatimizda xotin-qizlarning oliy ta'limning bakalavrdan keyingi bosqichida tahsil olish uchun ayollarga to'lov shartnomalari Davlat tomonidan qoplab beriladi. Bu dastur orqali ular kelajakda o'z professional sohaslarida o'qish va izlanishlarini davom ettirib, dunyo bozorida o'z o'rnini topishda yordam beradi deyishimiz mumkin.

Xotin-qizlarning ishsizligini oldini olish bo'yicha jahon tajribasi bir qancha muvaffaqiyatli dasturlar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Skandinaviya davlatlari, xususan, Shvetsiya va Norvegiya, gender tengligini ta'minlash uchun kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirmoqda [6]. Ular ish joylarida gender tengligini oshirish va xotin-qizlarga qo'shimcha ta'lim imkoniyatlarini yaratish bo'yicha dasturlarni yo'lga qo'ygan. Kanada hukumati xotin-qizlar uchun maxsus ishga joylashish dasturlarini ishlab chiqdi. Ushbu dasturlar ayollarga malaka oshirish, o'z bizneslarini boshlash va raqobatbardosh bo'lishlariga yordam beradi. Hindistonda "Mahatma Gandhi National Rural Employment Guarantee Act" dasturi orqali ayollarga ish imkoniyatlari yaratilgan. Bu dastur, ayniqsa, qishloq joylarida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan. Ko'plab Afrika mamlakatlari, masalan, Ruanda, ayollarning ishga joylashishiga yordam berish uchun qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda maxsus dasturlarni amalga oshirishmoqda. Bu, ayollarning iqtisodiy ishtirokini oshiradi. Amerikalik tashkilotlar, jumladan, "Women's Business Centers", xotin-qizlarga tadbirkorlik bo'yicha maslahatlar berib, o'z ishlarini yuritish uchun resurslar taqdim etadi. Bu tajribalar ko'rsatmoqda-ki, xotin-qizlarning ishsizligini kamaytirish uchun kompleks yondashuv va mahalliy sharoitlarga mos strategiyalar zarur. Har bir mamlakat o'z sharoitlariga mos keladigan usullarni ishlab chiqishi muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/3546742>
2. Axmedova D.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xotin-qizlar bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishi // "Экономика и социум" №10 (89) 2021. –B.51
3. Ahmadjonova D. Mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar// Vol. 2 No. 14 (2022): INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022.
4. Aminova R. Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda sotsial rivojlanishning dolzarb muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – B.106.
5. Социально-экономические условия сельских женщин Узбекистана. Материалы проекта ИНТАС. Международный координатор: Университет Влверхемптона. – Др. Марта Бруно. Общая ред. А.Алимджановой. – Ташкент, 2001. – С.89.
6. [https://uza.uz/oz/posts/davlat-fuqarolik-xizmatida-xotin-qizlarning-ijtimoiy-siyosiyfaolligini-oshirish-muhim-vazifa\\_531248](https://uza.uz/oz/posts/davlat-fuqarolik-xizmatida-xotin-qizlarning-ijtimoiy-siyosiyfaolligini-oshirish-muhim-vazifa_531248)
7. <https://lex.uz/docs/-5899498>



УДК: 52(091) + 929:52 + (575)

**Фарход ХАЛИЛОВ,**

преподаватель Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

E-mail: farhodxalilov@mail.ru

По отзыву доцент (DSc) С.Зокировой

#### ABOUT MIRZO ULUGBEK AND OTHER CENTRAL ASIAN SCIENTISTS WHO MADE A GREAT CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF ASTRONOMY

Annotation

The article provides a brief history of astronomy, information about Mirzo Ulugbek and other famous Central Asian astronomers who made a huge contribution to the development of this science; as well as it examines the astronomers they introduced into this science. It also observes astronomical terms used in the works of famous Uzbek writers and periodicals of that time.

**Key words:** astronomy, astronomer, astronomical terms, encyclopedic scholar.

#### О МИРЗО УЛУГБЕКЕ И ДРУГИХ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ УЧЁНЫХ, ВНЁСШИХ БОЛЬШОЙ ВКЛАД В РАЗВИТИЕ АСТРОНОМИИ

Аннотация

В статье даются краткая история астрономии, сведения о Мирзо Улугбеке и других известных среднеазиатских астрономах, внесших огромный вклад в развитие этой науки и исследуются введенные ими в эту науку астрономии. Также приводятся астрономические термины, использованные в произведениях известных узбекских писателей и периодической печати того времени.

**Ключевые слова:** астрономия, астроном, астрономические термины, ученый-энциклопедист.

#### MIRZO ULUG'BEK VA ASTRONOMIYA RIVOJLANISHIGA KATTA HISSA QO'SHGAN BOSHQA O'RTA OSIYO OLIMLARI HAQIDA

Annotatsiya

Maqolada astronomiyaning qisqa tarixi, ushbu fanning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan Mirzo Ulug'bek va boshqa buyuk o'rtaosiyolik olimlar haqida ma'lumot beriladi va ushbu olimlar tomonidan qiritilgan asronomik atamalar tadqiq qilinadi. Shuningdek maqolada taniqli o'zbek yozuvchilari asarlarida va o'sha davrning matbuotida qo'llanilgan astronomik atamalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** astronomiya, astronom, astronomik atamalar, ensiklopedist olimlar.

Астрономия является одной из древнейших наук. Первые записи астрономических наблюдений относятся к VIII в. до н.э. Однако известно, что еще за 3 тысячи лет до н.э. египетские жрецы довольно точно определили продолжительность тропического года. В Древнем Китае за 2 тысячи лет до н.э. китайские астрономы могли предсказывать наступление солнечных и лунных затмений. В Древней Греции астрономия была уже одной из наиболее развитых наук. Для объяснения видимых движений планет греческие астрономы, крупнейший из них Гиппарх (II в. до н.э.), создали геометрическую теорию эпициклов, которая легла в основу геоцентрической системы мира Птолемея (II в. до н.э.). Системой мира Птолемея завершается этап развития древнегреческой астрономии. Развитие феодализма и распространение христианской религии повлекли за собой значительный упадок естественных наук, и развитие астрономии в Европе затормозилось на многие столетия.

Наибольшего развития в средние века астрономия достигла в странах Средней Азии. Народы Средней Азии еще в глубокой древности создали высокую культуру. Среднеазиатские ученые развивали и двигали науку вперед в то время, когда в Западной Европе она находилась в упадке. Николай Коперник и другие ученые Европы, создавшие в XVI – XVII в.в. новое учение об устройстве Вселенной, имели достойных предшественников в лице среднеазиатских ученых IX – XV в.в.

Расцвет астрономии Востока связан с именем Мирзо Улугбека (1394 – 1449 г.г.). Именно так он больше известен истории («улугбек» – означает «великий правитель»), хотя настоящее его имя – Мухаммед Тарагай. Внук Амира Тимура Улугбек был наследственным правителем, однако не любил ни войну, ни политику. Он стал прекрасным ученым и одним из просвещеннейших людей своей страны, неустанно заботившимся о развитии науки в своей стране. Как отмечается в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2024 года № ПП-323 «О широком праздновании 630-летия со дня рождения великого ученого-энциклопедиста и известного государственного деятеля Мирзо Улугбека» Мирзо Улугбек наряду с правлением

своего государства на протяжении долгих лет, опираясь на идеи справедливости и гуманизма, осуществлял широкомасштабную созидательную работу, уделяя особое внимание развитию сферы науки, культуры и искусства как яркий представитель эпохи второго Возрождения, зародившегося на нашей земле в средние века. По его инициативе на благотворительной основе было построено множество медресе, школ, библиотек, мечетей, караван-сараяв, мостов, созданы тенистые сады. В результате наш край, всесторонне развиваясь, превратился в крупный центр культуры и науки на Востоке. Мирзо Улугбек достиг высоких результатов в области математики, физики, истории, архитектуры. Великий мыслитель своими масштабными научными исследованиями и открытиями, осуществленными в построенной по его указанию обсерватории в городе Самарканде, совершил коренной поворот в мировой науке астрономии. Созданное в результате таких изысканий нашего великого соотечественника произведение «Зижи жадида Курагоний» («Новые Гурагановы астрономические таблицы») и в настоящее время признается в качестве одного из великих трудов в области науки о звездах и с большим интересом изучается учеными мира»[1]. А Первый Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов в своей книге «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса» справедливо писал: «В истории Центральной Азии было немало выдающихся деятелей, сочетавших в себе политический ум и моральную доблесть, религиозное мировоззрение и энциклопедическую образованность» [2]. Их огромный вклад в развитие общечеловеческой цивилизации получил мировое признание. Уже в эпоху раннего ренессанса, то есть IX-X вв., наши предки обогатили мировую науку и культуру, их труды шагнули во многие страны планеты. Труды Мухаммада Хорезми, Ахмада Фергани, Абу Насра Фараби, Омара Хайяма, Абу Райхана Бируни, Махмуда Кашгари, Абу Али Ибн Сины (Авиценны), Насриддина Туси, Казы-заде Руми, Джамшида Кашги, Улугбека, Али Кушчи и других предвосхитили результаты исследований, осуществлявшихся в других странах в более поздние века. Астрономия как наука начала формироваться в



Средней Азии в IX веке в основном под влиянием трудов древнегреческих и индийских ученых, в частности в это время на арабский язык было переведено сочинение К.Птолемея «Альмагест». В регионе задолго до этого велись наблюдения за небесными телами. известны согдийские календари, составленные в VI в. В числе разновидностей летоисчисления, зародившегося в те времена был и метод «мучал» – определение годов по названиям 12 животных – исходя из которого определялся и возраст людей. Мусульмане с особым интересом изучали астрономию, чтобы точнее определить направление киблы, – священного камня Каабы, начало лунного года и время совершения молитвы. Астрономические знания были необходимы торговцам, путешественникам, земледельцам.

В средние века развитие астрономии было тесно связано с развитием математики. Среди трудов по астрономии важное место занимали зиджи – сборники астрономических и тригонометрических таблиц. В одном из наиболее ранних зиджей Мохаммад ибн Мусо аль Хорезми (783-850 г.г.) составил астрономические таблицы. В 1126 году эти таблицы были переведены на латинский язык и взяты за основу астрономических исследований европейских ученых. В Европе имя аль-Хорезми стало произноситься как «Алгоризми», затем превратилось в «Алгорифм», который как термин вошел в историю науки как система математических операций по строго определенным правилам. Другой труд нашего соотечественника «Алжабр вал-мукобил» стал основой математики средних веков. Слово «алжабр» стало по латыни читаться как «алгебра». Мохаммад ибн Мусо аль Хорезми были написаны также «Трактат по астролябии», «Трактат о солнечных часах», «Трактат изображения Земли». Эти сочинения аль-Хорезми до Ньютона и Гершеля являлись основным руководством по астрономии во всей Европе.

Другой не менее яркой звездой на научном небосклоне был родившийся в Кувейте Ахмад аль-Фаргони (797-865 г.г.). Благодаря пылкости и огромному трудолюбию он стал гениальным астрономом, математиком и географом. Его «Книга о небесных движениях и свод науки о звездах» по основам астрономии стала для того периода наиболее известным произведением во многих странах мира. Она в 1145 году неким Герардо из Италии была переведена с арабского на латинский язык. В этих переводах имя ученого стало даваться в видоизмененной форме. В латинской транскрипции это писалось и звучало как «Алфраганус». В 1175 году этот трактат аль-Фаргони переводится на иврит. Начиная с 1193 года он стал переводиться и на другие европейские языки. А с началом книгопечатания в Европе это произведение в 1533, 1590, 1910, 1919 годы издавалось в Германии, Франции, США, Англии, Голландии. Известный ученый Регноментан в XV веке свои лекции по астрономии в университетах Австрии и Италии читал по указанному произведению аль-Фаргони. Он определил самый длинный день в году – 22 июня, самый короткий – 23 декабря, а также дни равноденствия 21 марта и 23 сентября. То, что Земля круглая подтвердили кругосветные путешествия Колумба. Но с начала была теория стереографической проекции аль-Фаргони. Теория давала возможность определить сиюминутные и последующие расположения звезд, время затмения Солнца и Луны. Его астролябия позволила с высокой точностью определить астрономические координаты небесных светил, поверхность Земли.

Проведенные ученым измерения дуги меридиана Земли помогли определить размер земного шара и внести существенные изменения в изображение карты мира, основанной на учении Клавдия Птолемея. Карта нашего земляка считалась для мореходов и ученых важным и ценным руководством. Так в библиотеке знаменитого путешественника Христофора Колумба находились выдержки и чертежи из произведения ферганского ученого.

Ведя исследовательскую работу в Каире, аль-Фаргони создал прибор – сооружение, определяющий уровень поверхности воды реки Нил, вошедшее в историю науки как «нилометр». Свыше 11 веков нилометр прослужил арабскому народу до строительства в 60-х годах XX века Асуанской плотины.

На основе научного анализа он заблаговременно предвидел затмение Солнца, которое затем произошло в тот период. Теоретическое обоснование астролябии ученого спустя 9 веков было использовано знаменитым математиком Леонардом

Эйлером при составлении главной географической карты Российской империи. Небезинтересно узнать, что имя нашего предка упоминают в своих произведениях итальянский поэт А.Данте, немецкий драматург И.Шиллер. В книге известного астронома Яна Гевелия «Селенография», изданной в 1647 году, два кратера Луны уже тогда были названы именами аль-Фаргони и Мирзо Улутбека.

Абу Али Ибн Сина (980 – 1037 г.г.), известный в Европе как Авиценна, был образованнейшим человеком не только своего времени, но и всего средневековья, вплоть до эпохи Возрождения. В области естествознания и философии он считался последователем Аристотеля и Фараби, а прославился своими занятиями медициной. При этом он интересовался математикой и астрономией, проводил наблюдения и даже издал краткое изложение труда Птолемея.

Современником Ибн Сины был Абу Райхан Бируни (973 – 1048 г.г.) – выдающийся энциклопедист своего времени, занимавшийся математикой, географией, историей, филологией и другими науками. Однако наиболее ярко фигура Бируни проявилась в области астрономии. Велик был у него интерес к астрономии. В возрасте 16-17 лет измерил полуденную высоту Солнца с помощью армиллы. В 21 год с большой точностью определил величину склонения эклиптики к экватору. 22-х летний Бируни создает глобус. Им написана «Геодезия» («Определение координат нахождения расстояния между населенными пунктами»). В ней содержатся ценнейшие сведения по астрономии, геодезии, геофизике и географии. Его «Канон Масъуда» представлял собой энциклопедию астрономических знаний. Из 150 трудов, написанных им, 70 посвящено проблемам астрономии. Бируни четвертым в истории науки (после Эратосфена, Посидония и геодезистов аль-Мамуна) определил размеры Земли, причем своим, оригинальным методом. Полученный им результат был очень близок к оценкам современных ученых.

Идеи Бируни нашли отклик в сердце одного из блестящих мыслителей Средней Азии – поэта и философа Омара Хайяма (1040 – 1123 г.г.), занимавшегося также математикой и астрономией. Хайям родился в 1048 г. в Нишапуре (Хорасан) и умер в этом же городе в 1131 г. Благодаря своим выдающимся способностям он был призван ко двору сельджукского султана Малик-шаха, где занимался астрономией, математикой, а также писал стихи. В 1076 г. для Хайяма и его помощников в Исфахане, столице Малик-шаха, была построена астрономическая обсерватория – одна из крупнейших в то время. Она просуществовала до 1092 г., т.е. до смерти султана. На ней под руководством Хайяма были составлены «Маликшахские астрономические таблицы» («Зидж-Малик-шахи»), от которых сохранились только таблицы ста наиболее ярких звезд. Для упорядочения календаря Малик-шах создал специальную комиссию, состоявшую из выдающихся математиков и астрономов. Во главе этой комиссии был поставлен Хайям.

Календарь Хайяма следует считать одним из самых точных, так как средняя длина года в нем равна 365,24242 дням. Эта величина больше современного значения года (365,24220) всего на 0,00022 суток и, следовательно, дает ошибку в один сутки за 4500 лет. Значит, этот календарь точнее григорианского. Календарь Хайяма применялся позднее в республиканском календаре французской буржуазной революции, а в настоящее время применяется в Иране.

Что же касается истории астрономической терминологии узбекского языка, то она уходит своими корнями к VII – VIII векам нашей эры. Впервые астрономические термины упоминаются в памятниках Орхоно-Енисейской письменности (VII – VIII в.в.). В этих памятниках встречаются такие астрономические термины, как кун ортысыкару (восход), кун батсыкына (заход), кун ортысыкару (полдень), тун (ночь), кунгуз (день), вага (юг), онча (восток), жуга (север) и др. [3]. Приведенные примеры доказывают, что астрономия как наука начала формироваться еще в древней Средней Азии. Ценные материалы о тюркских астрономических терминах дает в своем знаменитом произведении «Дивану лугат ат-турк» («Словарь тюркских наречий») Махмуд Кашгарий. Махмуд Кашгарий – первый известный науке тюрколог-лингвист, этнограф, историк, фольклорист. В этом словаре представлены:

1) лексика с указаниями ее племенной принадлежности;

- 2) сведения о расселении тюркских племен;
- 3) классификация тюркских языков;
- 4) сведения по тюркской исторической фонетике и грамматике;
- 5) сведения по истории, географии, астрономии, этнографии, поэзии и фольклору тюрков;
- 6) самая старая тюркская карта мира.

Махмуд Кашгарий является первым ученым, взявшим на себя нелегкий труд описания лексики и грамматического строя тюркских языков в свете достижений арабского языкознания – передовой лингвистической мысли своей эпохи. Глубокие знания в области арабского языкознания, пылкий ум, понимание разности системности тюркских и арабских языков, практическое владение рядом тюркских языков и диалектов позволили ему создать оригинальную систему описания тюркских языков и выявить специфические черты языков тюркской семьи. «Диван», по замыслу его автора, преследует сугубо практические цели – он должен был служить пособием при изучении тюркских языков лицами, владеющими арабским языком. «Диван» является самым ранним из известных нам научных исследований по тюркским языкам. Он является не только двуязычным словарем, но и грамматическим пособием по изучению тюркских языков, энциклопедией этнографических, исторических, астрономических, фольклорных данных по тюркским народам. Махмуд Кашгарий отчетливо понимал разности системность тюркских и арабского языков. Специфическую черту тюркских языков – явление агглютинатсии – он четко отличает от внутренней флексии арабского языка. На примере образования форм залогов и времен глаголов в арабском и тюркском языках он наглядно

показывает неизменяемость корневого гласного и структуры корня тюркских слов при слово- и формообразовании. В то же время он имеет четкое представление о причинах наличия сингармонистических вариантов аффиксов в тюркских языках. Важное место в «Диване» занимают вопросы взаимовлияния разности системных языков. Как известно в X – XI в.в. на обширных территориях Ближнего Востока, Средней Азии, Восточного Туркестана, Китая тюркские народы взаимодействовали со многими народами, говорящими на нетюркских языках. Это взаимодействие не прошло бесследно ни для тюркских языков, ни для арабского, персидского (таджикского) и других языков. Интуитивно-материалистическое решение вопроса о взаимоотношении языка и жизни, а также признание равноправности разности системных языков позволили ученому правильно понять и оценить взаимовлияние тюркских, иранских и арабского языков друг на друга. Он далек от мнения, что влиять на другие языки могут только привилегированные языки – арабский и персидский. Поэтому он указывает на лексические заимствования как из арабского и персидского языков в тюркские, так и из тюркских языков в иранский.

И в настоящее время в астрономической терминологии современного узбекского литературного языка наряду с терминами исконно узбекского происхождения в большом количестве используются русско-интернациональные заимствования, т.е. термины, вошедшие в состав узбекского литературного языка из русского языка и из других западноевропейских языков через русский язык, а также термины арабского и персидского происхождения.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-323 «О широком праздновании 630-летия со дня рождения великого ученого-энциклопедиста и известного государственного деятеля Мирзо Улугбека» от 12 сентября 2024 года.
2. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса, Ташкент, 1973.
3. Бафоев Б. Алишер Навои асарларининг лексикаси, Ташкент, «Фан», 1983.
4. Дониеров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан, Ташкент, Фан, 1973.
5. Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке, Ташкент, Фан, 1972.
6. История лингвистических учений. Средневековый Восток, Ленинград, «Наука», 1971.
7. Нуриддинов С., Рахимов А. Астрономия // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, т.1, Ташкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2000. С.470-474.
8. Усмонов О., Хамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар, Ташкент, Фан, 1981.



UDK 94:908.396

Zilola SHOMANSUROVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedrasida o'qituvchisi

QarDU dotsenti, PhD A.Ermazarov taqrizi asosida

## REFLECTIONS ON THE BORDER PROBLEMS BETWEEN RUSSIA AND SIN EMPIRES IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Annotation

The article contains a description of the agreement and protocol signed in the 60s of the 19th century between the two great powers Russia and the Sin Empire on political, social and economic issues.

**Key words:** Russia, Sin Empire, Beijing, Chugachak, "Aygun" and "Tianzin" treaties, Gulja, "Opium" war.

## РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПОГРАНИЧНЫХ ПРОБЛЕМАХ МЕЖДУ РОССИЕЙ И ИМПЕРИЯМИ СИНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Аннотация

В статье описываются соглашение и протокол, подписанные в 60-е годы XIX века между двумя великими державами Россией и Империей Цина по политическим, социальным и экономическим вопросам.

**Ключевые слова:** Россия, Империя Цина, Пекин, Чугачак, «Айгунский» и «Тяньзиньский» договоры, Кульджа, «Опиумная» война.

## XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA ROSSIYA VA SIN IMPERIYALARI O'RTASIDAGI CHEGARA MUAMMOLARIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning 60-yillarida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni holati va chegara masalalaridagi o'zaro tortishuvlar hamda imzolangan shartnoma va protokollar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Rossiya, Sin imperiyasi, Pekin, Chugachak, "Aygun" va "Tyanszin" shartnomalarini, G'ulja, "Afyun" urushi.

**Kirish.** Qadimdan bugunga qadar mamlakatlar o'rtasida chegara masalalari uzoq tortishuvlar, bahs-munozaralarga sabab bo'lgan o'ta dolzarb masala hisoblangan. Xususan, Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasida vujudga kelgan chegara uch yuz yillik tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, aynan XIX asrning ikkinchi yarmidan to'ohiriga qadar bo'lgan vaqt mobaynida bu masala to'liq o'z nihoyasiga yetdi. Aynan, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasida chegara borasidagi tortishuvlar kelishmovchiliklarning boshlanishiga sabab bo'lib, ko'plab iqtisodiy-ichimoiy muammolarni avj olishiga olib keldi. Jumladan, Rossiya va Sin imperiyasi o'rtasidagi chegara masalalarining dolzarbligi shundan iboratki, XVIII-XIX asrlarda ushbu davlatlarning o'z hududlarini kengaytirishga intilishi kuchaydi. Bu masala nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va strategik jihatdan ham muhim edi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Hududiy kengayish va strategik manfaatlar bo'lib, Rossiya uchun muhim moliyaviy daromad manbai bo'lgan Sharqiy Sibir hududlari tomon o'z yerlarini kengaytirishi bilan boshlandi. Aynan, Sibirming Amur havzasi o'ta bo'y ser hosil yerlardan tashkil topganligi, Rossiya uchun ham Sin imperiyasi uchun ham o'ta muhim iqtisodiy hudud hisoblangan. Albatta, Rossiya imperiyasi Sibir orqali Sharqqa kengayib, yangi yerlarni o'zlashtirishni davom ettirdi. Bu imperiya o'zining Uzoq Sharq va Osiyo bilan chegaralarini mustahkamlashni istar edi. Amur va Ussuri daryolari bo'yidagi hududlar Rossiya uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, savdo va harbiy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan. Sin imperiyasi esa an'anaviy ravishda o'z chegaralarini qattiq nazorat qilgan va G'arb davlatlari bilan aloqa qilishdan qochgan. Biroq, Sin imperiyasi janubi-g'arbiy chegaralari bo'yicha (masalan, Tibet, Turkiston) Rossiyaning kengayishidan xavotirda bo'lgan.

Ikkinchidan, savdo masalalari resurslarga, xususan, foydali qazilmalarga va savdo yo'llariga egalik qilish nuqtai nazaridan ham muhim edi. Ipak yo'li va boshqa savdo tarmoqlari strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu ikki davlat uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan.

Uchinchidan, chegaraviy nizolar va diplomatik munosabatlardir. XVIII asrda Rossiya va Sin imperiyasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tmagan bo'lsa-da, chegaralarni aniqlash va nizolarni hal qilish uchun diplomatik muzokaralar o'tkazilgan. 1689-yilda imzolangan Nerchinsk shartnomasi chegaralarni birinchi marta rasman belgiladi. Shu bilan

birga, XIX asrning o'rtalarida, ayniqsa, Aygun shartnomasi (1858) va Pekin konvensiyasi (1860) imzolanishi bilan Rossiya Amur va Ussuri hududlarini o'z tasarrufiga oldi. Bu davrda Sin imperiyasi ichki beqarorlik va tashqi bosimlar tufayli zaiflashgan, bu esa Rossiyaga hududiy foyda olish imkonini bergan.

To'rtinchidan, geosiyosiy muvozanat va xalqaro kuchlar, XIX asrda bu masalalar dolzarb bo'lib, XIX asrning o'rtalariga kelib, boshqa Yevropa davlatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va Fransiya, Sharqiy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirishga urinib, Sin imperiyasiga bosim o'tkaza boshlagan. Rossiya bu vaziyatdan foydalanib, Sin bilan o'z munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga va qulay shartlarda chegara masalalarini hal qilishga intilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi chegara muammolari Markaziy Osiyo, Sibir, Manjuriyaga tegishli hududlar ustidan nazorat va ta'sir doirasini belgilash masalalari bilan bog'liq edi. Ushbu davrda chegara mojarolari va muzokaralar natijasida bir qator bitimlar va shartnomalar imzolangan. Bu mavzuga doir tarixiy adabiyotlar va tadqiqotlar asosan diplomatiya, siyosiy ziddiyatlar, hududiy da'volar, va millatlararo munosabatlarga qaratilgan.

Asosiy tarixiy bitimlar: 1. Aigun shartnomasi (1858): Bu shartnoma bilan Rossiya Amur daryosining shimoliy sohilini nazorat qilishi tan olindi, bu Sin imperiyasi uchun katta hududiy yo'qotish bo'ldi. 2. Pekin shartnomasi (1860): Xitoyda bo'lgan ikkinchi afyun urushidan keyin imzolangan bu shartnoma Rossiyaga Ussuriyskiy o'lkasini berdi va Rossiyaning Uzoq Sharqdagi pozitsiyasini mustahkamladi.

3. Tarbag'atay shartnomasi (1864): Bu shartnoma bilan Sinszyan va Qozog'iston chegaralari aniqlandi, bu Markaziy Osiyo va Sibirda ikki davlat o'rtasidagi chegaralarni aniqlashga yordam berdi.

**Adabiyotlar sharhi:** 1. Imperializm va diplomatiya: Ushbu davrga oid adabiyotlar Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi munosabatlar kontekstida mustamlakachilik siyosatini o'rganishga katta e'tibor qaratadi. Ko'plab tadqiqotchilar bu mojarolarni Rossiyaning Sharqqa tomon kengayish strategiyasi va Sinning ichki zaifliklari bilan bog'lashadi. 2. Arxiv hujjatlari: O'sha davrga oid ko'plab bitimlar va diplomatik yozishmalar turli arxivlarda saqlanib qolgan. Ushbu hujjatlar Rossiyaning harbiy va siyosiy elitalari tomonidan olib borilgan muzokaralar va Sin imperiyasining qarshiliklari haqida qimmatli ma'lumot beradi. 3. Geosiyosiy va

iqtidosiy omillar: Rossiyaning Sin bilan bo'lgan chegaraviy ziddiyatlarida Uzoq Sharqning geosiyosiy ahamiyati va iqtisodiy foydasi katta rol o'ynagan. Ayniqsa, savdo yo'llari va tabiiy resurslarga ega bo'lish muhim omillardan edi.

Asosiy asarlar:

• "The Great Game": Bu atama XIX asrda Markaziy Osiyo va Xitoy bilan bo'lgan geosiyosiy raqobatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Ko'plab tarixchilar Rossiyaning Sin bilan bo'lgan chegaraviy muammolarini aynan shu raqobatning bir qismi sifatida ko'rishadi.

• "Qing China and Russia: The Unequal Treaties": Ushbu asar Sin imperiyasi va Rossiya o'rtasidagi noadlatli shartnomalarni tahlil qiladi va XIX asr oxiridagi hududiy yo'qotishlarning tarixiy kontekstini o'rganadi. Bu adabiyotlar Rossiya va Sin o'rtasidagi diplomatik ziddiyatlar, hududiy da'volar va geosiyosiy raqobatni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi chegara muammolarini o'rganish uchun tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda bir necha asosiy yondashuv va usullarni ko'rib chiqish lozim. Ushbu masala ko'plab tarixiy, diplomatik, huquqiy va iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lgani uchun, keng ko'lamli va ko'p qirrali tadqiqot metodlari qo'llaniladi. Quyida mazkur mavzuni tadqiq qilish uchun asosiy metodologik yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz:

1. Tarixiy manbalarni tahlil qilish usuli • Rasmiy hujjatlar: O'sha davrda tuzilgan davlatlararo shartnomalar, diplomatik yozishmalar va protokollar Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi munosabatlari va chegara muammolarini aniqlash uchun muhim manbalari hisoblanadi. Masalan, 1858-yil Aygun shartnomasi, 1860-yil Pekin shartnomasi kabilar. • Arxiv materiallari: Rossiya va Xitoyning milliy arxivlarida saqlanayotgan ma'lumotlar, elchilar, harbiy qo'mondonlar va boshqa davlat arboblarning hisobotlari, memorandumlari tadqiqot uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. • Davlat nashrlari va gazetalar: Rossiya va Xitoyning XIX asrdagi nashrlarida bu masala bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar va muhokamalar aks ettirilishi mumkin.

2. Geografik va kartografik tahlil • Chegara xaritalari: Rossiya va Sin o'rtasidagi chegara hududlari o'zgarishini kuzatish uchun kartografik materiallardan foydalanish zarur. XIX asrda tuzilgan chegaraviy xaritalarni o'rganish, muammolar va nizoli hududlarni aniqlashda yordam beradi. • Geopolitik tahlil: Geografik joylashuvning iqtisodiy va strategik ahamiyati tadqiqot uchun muhimdir. Bu hududdagi tabiiy resurslar, savdo yo'llari va harbiy qo'nalg'alar bo'yicha izlanishlar olib borish mumkin.

3. Siyosiy tahlil va diplomatik munosabatlari

• Davlatlararo muzokaralar jarayonini o'rganish: Diplomatik yozishmalarni tahlil qilish orqali Rossiya va Sin o'rtasidagi siyosiy va diplomatik munosabatlari dinamikasini ko'rib chiqish. • Tashqi siyosat strategiyalari: Har ikki davlatning chegara muammolariga bo'lgan munosabatini o'zgarishlari, tashqi siyosat yo'nalishlari va ularning uzoq muddatli maqsadlarini o'rganish.

4. Qiyosiy tarixiy usul • Boshqa davlatlar tajribasini o'rganish: XIX asrda boshqa imperiyalar (masalan, Britaniya imperiyasi) bilan bo'lgan chegara muammolarini o'rganish orqali Rossiya va Sin o'rtasidagi vaziyatni qiyoslash.

5. Ijtimoiy va iqtisodiy tahlil • Hududiy aholi va etnik guruhlar ta'siri: Chegaraga yaqin yashovchi xalqlar va ularning etnik, madaniy xususiyatlarini o'rganish. Bu omillar Rossiya va Sin o'rtasidagi chegara muammolarida muhim rol o'ynagan.

• Savdo va iqtisodiy manfaatlar: Chegarada joylashgan savdo yo'llari, manbalari va bu hududlarning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish.

6. Xalqaro huquq va shartnomalar tahlili • XIX asrda Rossiya va Sin o'rtasidagi chegara muammolari xalqaro huquq doirasida qanday hal qilinganligini o'rganish uchun o'sha davrda mavjud bo'lgan xalqaro huquqiy meyorlar va tamoyillarni tahlil qilish zarur.

Bu usullar kombinatsiyasi mavzuning ko'p qirrali tomonlarini o'rganishga yordam beradi. Tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillarni birgalikda tahlil qilish XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi chegara muammolarini chuqurroq tushunishga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Jumladan, XVII va XVIII asrlar bu ikki yirik davlatlarning chegaralari shimoliy sharqiy va shimoliy g'arbiy hududlarda to'qnashdi. 1756-yilda Sin imperiyasining Jungariya xonligi yerlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib olishi va bu hududlarda Sinszyan viloyati tashkil topishi natijasida, Qozoq juzlari o'z istagi

bilan Rossiya imperiyasi vassalligiga o'tishiga sabab bo'ladi. Oqibatida, ikki buyuk imperiyalarning chegaralari shimoliy g'arbiy yerlarda tutashishiga sabab bo'ldi. Chunki XIX asrning 20-40-yillarida Katta Juz qozoqlari va qirg'izlarning rus fuqaroligiga o'tishi oqibatida 1844-yili Sergiopol, 1847-yili Kopal istehkomlari barpo etilib, bu yerda Olatov okrugi tashkil topadi. Aytish mumkinki, ushbu qal'alar keyingi harbiy yurishlar uchun tayanch nuqta bo'lgan. Jarayonlarning bu asnoda rivojlanishi Xitoy tomoniga yoqmagani. Chunki Rossiya o'z istilolari bilan endi Sin'zyanga yaqin kelishi barobarida ularga bir paytlar o'lpon to'lab turgan qirg'izlarni rus fuqaroligiga olinishi chegaralarda muammolar keltirib chiqarishi tabiiy edi[1].

XIX asr xitoyliklar qozoq yerlaridagi rus mulklarining chegarasini muntazam ravishda buzib, Rossiya hududida ruxsatsiz oltin qazib olish bilan shug'ullangan. Rus kazak otryadlari ularni doimiy ravishda Xitoy hududiga qaytarishga majbur bo'ldi[2]. Shunday sharoitda ikkala tomon o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish tashabbusi bilan chiqadi. Avvalo, mazkur imperiyalar hududi Markaziy Osiyo mintaqasiga yaqinlashishi oqibatida Sankt-Peterburg hukmron doiralari Rossiyaning Sin'szyan va Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalarini xavfsizligini ta'minlash va mustahkamlashga harakat qiladi. Shu jihatdan 1850-yil 25-iyulda imzolangan "G'ulja traktati" Rossiya va Xitoyning O'rta Osiyodagi savdo aloqalarini qonuniy mustahkamlash va rivojlantirishda dastlabki qadam bo'ldi. 1852-yil 5-fevralda imperator Nikolay I G'ulja shartnomasi hamda G'arbiy Xitoy bilan quruqlikdagi savdo qoidalarni imzolaydi[3]. Shartnomaga asosan karvon boshliqlari ma'lum shaharlarda mahsus ruxsatoma biletlarini olgan holda Xitoy hududiga kirish va u yerda savdo qilish huquqiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga Sin imperiyasi G'ulja va Chuguchak shaharlarida rus konsulligi ochilishiga ruxsat berib, I.I.Zaharov va A.A.Tatarinovlar birinchi konsullar etib tayinlandilar.

Ammo, "G'ulja shartnomasi" o'rtadagi iqtisodiy-siyosiy va chegara masalalarini to'la qonli yechim topishiga sabab bo'lmadi. 1855-yilda xitoyliklar Chuguchakdagi rus savdo punkтини yoqib yuborishdi. Shunday qilib, ikki davlat o'rtasidagi o'sha paytga qadar allaqachon shakllangan, ammo hali demarkatsiya qilinmagan chegarani hal qilish masalasi dolzarb bo'lib qoldi. Natijada ular o'rtasidagi chegara masalalari va bu yerda istiqomat qiluvchi xalqlarning ichimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalari eng dolzarb mavzuga ayladi[4]. Oqibatda, 1858-yilda "Aygun" va "Tyanszin" shartnomalarini imzolab, unda Sharqiy Sibir gubernatori N.N. Muravyov va Xitoy komissari - "general-adyutant, saroy zodagoni, Amur bosh qo'mondoni, knyaz Yi Shan" Aygun shahrida "Amurning chap qirg'og'ini Rossiyaga qaytarish, rus-xitoy ittifoqini tashkil etish to'g'risida" shartnoma imzoladilar. Ussuri mintaqasida va Amur, Sungari va Ussuri daryolari bo'ylab savdoga kelishildi[5].

Biroq, Aygun shartnomasiga ko'ra, 1689 yildagi Nerchinsk shartnomasiga binoan Xitoyga cheklangan suverenitet shartlari bilan berilgan rus erlari Argun va Amurning o'ng qirg'og'i Rossiyaga qaytarilmadi. Shunday bo'lsa-da "Aygun" shartnomasi ikki davlat manfaatlarini asosida bo'lib, G'arb davlatlarini Xitoy va Rossiyaning umumiy mulki bo'lgan Aygun hududiga bostirib kirishiga qarshi qaratilgan edi. Chunki, Aygun daryosi Rossiya uchun katta siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, Tinch okeani havzasiga chiquvchi yagona arzon suv savdosi yo'li edi. Ammo, Xitoy armiyasining Angliya va Fransiya bilan urushdagi mahalliy muvaffaqiyati Sin hukumatini Aygun va Tyanjin shartnomalarini qonuniy kuchga ega emas deb e'lon qilishiga va Amurning chap qirg'og'ini Rossiyaga qaytarishni amalda rad etishiga olib keldi. Sin hukumatining dalillari shundan iborat ediki, birinchidan, shartnoma tuzgan shahzoda Yi Shan go'yo bunday vakolatga ega emas, ikkinchidan, shartnoma Sin imperiyasining davlat muhri bilan muhrlanmagan emas edi[6].

Biroq, ikki imperiya o'rtasida 1860-yilda Pekin shartnomasi imzolab, u 1858-yillarda imzolangan "Aygun" va "Tyanszin" shartnomalarini to'ldiruvchi hamda davomi sifatida ko'rildi. Pekin shartnomasi Rossiya imperiyasi uchun yirik diplomatik yutuq bo'ldi. Hozirgi kun tadqiqotchilaridan, jumladan, tarix fanlari doktori K.SH.Xafizovanning fikriga ko'ra bu shartnoma ikki tomon uchun teng huquq asosida bo'lmagan deb aytadi. Sababi, Rossiya imperiyasi manfaatlarini asosida shakllangan Pekin shartnomasini Sin imperiyasi tomonidan e'tirozsiz imzolaishiga bir qancha tarixiy omillar sabab bo'ldi.

Bunga, birinchidan, 1856-1860-yillarda G'arb davlatlari va Sin imperiyasi o'rtasida bo'lib o'tgan ikkinchi "Afyun" urushida inglizlardan mag'lub bo'lishi bo'lsa, ikkinchidan, 1850-1864-yillar mobaynida bo'lib o'tgan "Taypin" va Sharqiy Turkistondagi musulmon

xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari Sin imperiyasini zaiflashishiga sabab bo'ldi va Sin imperiyasining oldingi qudratini yo'qotishiga olib keldi. Bu voqealar o'z navbatida "Afyun" urushida g'olib bo'lgan G'arb davlatlari Angliya va Fransiya Xitoy hududida katta iqtisodiy imtiyozlarga ega bo'lishiga, Sin imperiyasini siyosiy-iqtisodiy tomondan zaiflashishiga hamda Jahon siyosiy maydonida o'z mavqeyini pasayishiga olib keladi. Rossiya imperiyasi bu qarama-qarshilikda ochiq ishtirok etmadi, lekin o'zining milliy manfaatlariga ega edi. Xususan, Nerchinsk shartnomasini qayta ko'rib chiqish va Xitoy bilan bahsli hududlarda chegaralarni o'rnatish, Angliya va

Fransiyaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga haddan tashqari ta'sirini oldini olish, savdo imtiyozlarini olishdan iborat edi.

**Xulosa.** Umuman olganda, Sankt-Peterburg shartnomasi ikki mamlakat o'rtasidagi chegara masalalarini ohiriga yetkazdi. Chegarada istiqomat qiluvchi aholilarning ijtimoiy masalalari bilan bir qatorda o'rtadagi iqtisodiy masalalar, elchihonalarning tashkil etilishi ularning imtiyozlari haqida keng ko'lamdagi kelishuvga erishildi. Bu esa o'z o'rnida kelguvsidagi rus-xitoy kelishuvlari uchun namuna bo'ldi. Ikki mamlakat o'rtasida bir necha yillar davomida chegara masalalari va savdo aloqalari borasidagi totrishuvlar shu tariqa o'z nihoyasiga yetdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Urakov D.J. Turkiston general gubernatorligining qo'shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy va ichtimoiy aloqalari (1867-1917 yy.).- Toshkent, 2021.-31-32 b.
2. Ганиев Р.Т. Политика России и Китая в Центральной Азии. Издательство Уральского университета.: Екатиренбург,2017.-30 ст.
3. Urakov D.J. Turkiston general gubernatorligining qo'shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy va ichtimoiy aloqalari (1867-1917 yy.).- Toshkent, 2021.32 b.
4. Ганиев Р.Т. Политика России и Китая в Центральной Азии. Издательство Уральского университета.: Екатиренбург,2017.-30 ст.
5. Темников Е.Г. Территориальный вопрос в межгосударственных отношениях России и Китая во второй половине XIX века. Учётные записки Казанского государственного университета. Том 149, 2007.С. 205.
6. Никашкин А. А., Федоров В. Г. Обзор внешнеполитического взаимодействия России и Цинской империи (конец XVII – вторая половина XVIII вв.): демаркационный аспект. ФГБОУ ВО «Мордовский государственный университет им. Н. П. Огарёва», Саранск, Россия-2021. С.37.